



UNIVERSAL  
CONFERENCE

---

---

# CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD

---

---

UNIVERSALCONFERENCE.US

**CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN  
THE MODERN WORLD**

**VOLUME-02, ISSUE-03**

**Editor in Chief**

**Dr. Rajeev Ojha** - Interdisciplinary Research in Basic Sciences, Jamia Millia Islamia, New Delhi -110025, India

**Editorial Team**

**Sunita Sarawagi** - Indian Institute of Technology Bombay, Mumbai, India.

**Dr Manjunatha LH** - Professor, REVA University, INDIA

**Asish Bera** - Edge Hill University, UK, BITS Pilani, India

**Dr Sunildro LS Akoijam** - Assistant Professor of Management, North Eastern Hill University, India

**Madan Mohan Singh** - Professor of Mathematics, North-Eastern Hill University, Shillong, India

**Dr. Anupam Singh** - Associate Professor-CSE, Graphic Era Hill University Dehradun, India

**Dr. Sargam Bahl Walia** - School of Management, Graphic Era Hill University, Dehradun, Uttarakhand, India

**Narayan Pradhan** - Indian Association for the Cultivation of Science

**Ashok Kumar** - Kumar Associate Professor E&CE National Institute of Technology. Hamirpur, India.

**Anjali Pal** - Department of Civil Engineering, Indian Institute of Technology Kharagpur - 721302, India.

**Rajnish Joshi** - Professor of Medicine, All India Institute of Medical Sciences, Bhopal, India

**Mukul Kumar** - IIT Mumbai (India); Meijo University (Japan); HEG Ltd. (India)

**Prof. Kuruvilla Joseph** - Indian Institute of Space Science and Technology (IIST)

**Prof. Yogesh C. Sharma** - D.Sc., FRSC, FBRS, FIAPS; FISEES, Department of Chemistry, Indian Institute of Technology

**Professor Indra Mani Mishra** - Indian Institute of Technology (Indian School of Mines), Dhanbad; Formerly at India

## MINNATDORCHILIK NUTQIY AKTLARIDA LOKUTSIYA VA ILLOKUTIV MAQSADNING IFODALANISHI

**Mirjalol Olimovich Ziyayev**

**Teacher**

**"Mendeleev" Private School**

**Fergana, Uzbekistan**

### **Annotatsiya:**

Ushbu ilmiy ishda “Minnatdorchilik nutqiy aktlarida lokutsiya va illokutiv maqsadning ifodalanishi” mavzusi tadqiq etiladi. Nutqiy aktlar, jumladan, minnatdorchilik, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar va muloqot jarayonida muhim o'rin tutadi. Minnatdorchilik nutqiy akti, nafaqat shaxsiy his-tuyg'ularni ifodalash, balki jamiyatda ehtirom va hurmatni ko'rsatish vositasi sifatida ham qaraladi. Ushbu ishda minnatdorchilik nutqi lokutsiyaviy va illokutiv aspektlarda tahlil qilinadi, ya'ni nutqning yuzaga kelishi va uning amalga oshirish maqsadlari ko'rib chiqiladi. Lokutsiya — nutqning mazmuni va uni ifodalovchi til vositalari, illokutiv maqsad esa nutqni ishlatishdan ko'zlangan maqsadlarni anglatadi. Minnatdorchilikda bu ikkala aspektning o'zaro aloqasi va ahamiyati tahlil etilib, nutqdagi harakatlar va ularning ijtimoiy funksiyalari ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** Minnatdorchilik, nutqiy aktlar, lokutsiya, illokutiv maqsad, tilshunoslik, kommunikatsiya, ijtimoiy aloqalar, nutq strukturalari, pragmatika, til va jamiyat.

### **Kirish**

Nutqiy akt nazariyasida lokutiv akt so'zlash nutqiy harakati sifatida talqin qilinadi. M.Hakimovning fikricha, “So'zlash akti lokutiv aktning namoyon bo'lishidir,” “so'zlash aktlarida bayon qilingan axborot nazarda tutilmaydi, balki so'zlovchi nutqiga xos talaffuz akti e'tiborga olinadi. Lokutiv akt so'zlash qoidasiga aloqador faoliyat ko'rinishlari bilan bog'lanadi... Fonetik, leksik va sintaktik birliklarning so'zlovchi tomonidan me'yoriy talaffuz jarayoni lokutiv akt deb qaraladi. Lokutiv aktning mohiyati jumlaning ma'lum grammatik qoidalar yordamida talaffuz qilinishi bilan oydinlashadi”[1].

Sh.Safarov ham lokutiv aktning so'zlash akti ekanligini ta'kidlaydi. U lokutiv aktga quyidagicha tavsif beradi: “Biz muloqot jarayonida mazmundor lisoniy kalimani yaratamiz va uni talaffuz qilish yo'li bilan nutqiy faoliyat bajaramiz, xuddi shu faoliyat ijrosi lokutsiya yoki lokutiv aktdir (locutionary act). Agarda biror bir

sabab bilan (tilni bilmaslik, gung bo‘lish) mazmundor gap tuzilmasa va u talaffuz etilmasa, lokutiv harakat yuzaga kelmaydi” [2].

Anglashiladiki, lokutsiya so‘zlash, nutqiy aktning talaffuz qilinishini anglatuvchi tushunchadir.

Muloqot jarayonida so‘zlovchining minnatdorlik hissi og‘zaki va yozma tarzda bayon etiladi. Minnatdorchilik nutqiy aktlari hissiy munosabat ifodalashiga ko‘ra ekspressiv akt turi bo‘lganligi sababli ham so‘zlovchining minnatdorlik hissi asosiy hollarda so‘zlash, og‘zaki bayon qilish tarzida bildiriladi. Minnatdorlik hissining bu tarzda bildirilishi natijasida ushbu aktning lokutiv xususiyati namoyon bo‘ladi.

Og‘zaki nutqda minnatdorchilik nutqiy aktlarining lokutiv xususiyati bevosita namoyon bo‘lsa, yozma nutqda muallif nutqida aytmoq, bayon qilmoq, demoq, gapirmoq, pichirlamoq kabi nutq fe‘llari yordamida bilvosita yuzaga chiqadi. Masalan:

1. – **Rahmat sizlarga**, ketgan vaqtlaringizga rozi bo‘linglar, – **dedi** biri. (Q.Kenja. “Palaxmon toshlari”)

2. – Rahmat. – Dobrotvorsev biroz jim qolib, yana **gapirdi**. (A.Muxtor. “Opa-singillar”)

3. Sayfiddin aka qotib qoldi. U qishda qora jiyronidan ayrilib qolganida bolasi o‘lgandek qayg‘urgan edi. Hozir mana shu oppoq otni ko‘rdi-yu, uning asil zot tulporlardan ekanini, bo‘yni ingichka, iligi to‘qligini darrov payqadi. Ha, u otni sevar edi, otni qadrlashni ham bilardi. Bu tulporning bahosi kamida uchta “Volga” bahosiga tengligini chamaladi. Agar hozir hech kim bo‘lmaganida u do‘stini bag‘riga bosgan, ko‘zidan yosh chiqib ketgan bo‘lardi. Ammo atrofdagi odamlar o‘ziga qarab turgani uchun unday qilmadi. Do‘stiga qarab **pichirladi**:

– **Rahmat. Yaxshi kunlaringda xizmat qilay!** (O‘.Hoshimov. “Nur borki, soya bor”)

4. Ergash quruchilar nomidan so‘zlagan javob nutqida qurilishning dastlabki ishlarini bajarishga g‘ayrat bilan yordam berganlari uchun shahar mehnatkashlariga rahmat **aytdi**... (A.Muxtor. “Opa-singillar”)

Muallif minnatdorchilik nutqiy aktiga salbiy munosabatni qo‘shish uchun ba‘zan shang‘illamoq, to‘ng‘illamoq, ming‘irlamoq kabi nutq fe‘llaridan foydalanadi. Qiyoslang:

– Bugun senga shirguruchning eng mazali joyidan obqo‘ydim.

– **Rahmat, Masha xola!** – Sherzod ham dilkashlik bilan **shang‘illadi**. – Saryog‘ini ikki hissa bersangiz ham yo‘q demayman. (O‘.Hoshimov. “Nur borki, soya bor”)

Xullas, minnatdorchilik nutqiy aktlarining lokutiv xususiyati ularning talaffuz qilinishi asosida namoyon bo‘ladi. Minnatdorchilik nutqiy aktlari talaffuz qilinmaganda lokutiv xususiyatga ega bo‘lmaydi. Shu sababli ayrim manbalarda ushbu nutqiy akt fatik harakatni (qisqa suhbat) aks ettiruvchi akt sifatida tavsiflanadi. Masalan, I.Varfolomeyeva minnatdorchilik ifodalash harakatini fatik muloqot doirasiga kirishini va kommunikativ marosimlarning ko‘pgina xususiyatlariga egaligi, asosiy ijtimoiy maqsadi muloqot ishtirokchilari o‘rtasida do‘stona muhitni yaratish va qo‘llab-quvvatlash ekanligini ta’kidlaydi [3].

Nutqda minnatdorchilik nutqiy aktning lokutiv xususiyati reallashar ekan, bir vaqtda illokutiv belgisi ham yuzaga chiqadi. Boshqacha aytganda, bu belgilar bir-biridan ajralgan holda namoyon bo‘lmaydi. So‘zlovchi minnatdorchilik nutqiy aktini talaffuz qilar ekan, u orqali kommunikativ maqsadini ham namoyon qiladi. Nutqiy aktning so‘zlovchi kommunikativ maqsadi bilan bog‘liq jihati pragmalingsvistikada illokutsiya deb ataladi.

Pragmalingsvistikada nutqiy aktlarda illokutsiyaning ifodalanishi, uning turli nutqiy aktlardagi mohiyatini o‘rganish muhim masalalardan biridir. J.Ostin tomonidan taqdim etilgan nutqiy akt nazariyasida illokutiv akt tushunchasi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. J.Ostin illokutiv aktni nutqiy aktda so‘zlovchi niyatini aks ettiruvchi akt sifatida tavsiflagan [4].

Sh.Safarovning fikricha, “Illokutiv akt bevosita muloqot strukturasi, ishtirokchisi, kommunikatsiyaning maqsadli va mazmunli ko‘chishini ta’minlovchi nutqiy faoliyat bo‘lagi” [5]dir. Shu jihatdan nutqiy aktlarning mazmun mohiyatini oldindan belgilab beruvchi kommunikativ maqsad va uning turlarini aniqlash, xususiyatlarini ochib berish muhim.

Har qanday nutqiy akt so‘zlovchining muayyan kommunikativ maqsadini aks ettiradi. M.Hakimovning ta’kidlashicha, “So‘zlovchi har qanday nutqiy aktda nimanidir aytishni maqsad qiladi, bu maqsad tinglovchi tasavvurida nima uchun hamda nima niyat bilan so‘zlanayotganligini his etishdan iboratdir. Bayon qilingan axborot mazmunini anglash va uning referensial ma’nosini tinglovchi tasavvuridagi nutq predmetiga xos denotativ ma’noga muvofiq kelish yoki kelmasligi natijasida matn semantik tuzilmasida informativ – iltimos va buyruq, va’da va talab kabi nutqiy aktlar yuzaga chiqadi” [6] Minnatdorchilik nutqiy aktlari ham so‘zlovchining muayyan kommunikativ maqsadi asosida shakllanuvchi nutqiy akt sanaladi.

Tilshunoslar minnatdorchilik nutqiy aktlarida illokutiv maqsadning ifodalanishini turlicha talqin qilishadi. Tilshunoslikda nafaqat minnatdorchilik nutqiy aktlarining illokutiv maqsadini belgilashda, balki bu turdagi nutqiy aktlarni biror bir sinfga birlashtirishda ham turli qarashlar kuzatiladi. Masalan, J. R. Serl

minnatdorchilik nutqiy aklari insonning ruhiy holatini aks ettirishi, shu jihatdan bu turdagi nutqiy aktlar ekspressivlar sinfiga kirishini ta'kidlaydi va uning illokutiv maqsadi muayyan propozitsional mazmun doirasida samimiylilik sharti bilan vaziyatga bildirilgan insonning psixologik holatini ifodalashdan iborat ekanligini qayd etadi [7]. Olim ingliz tilida ekspressivlarni ifodalashning namunaviy fe'llari sifatida "thank" (minnatdorchilik bildirmoq), "congratulate" (tabriklamoq), "apologize" (kechirim so'ramoq), "condole" (hamdardlik bildirmoq), "deplore" (achinmoq), "welcome" (xush kelibsiz) kabilarni ko'rsatgan[8].

K.Bax ham illokutiv maqsadlarni aks ettiruvchi nutqiy aktlarni fe'llar asosida sinflarga birlashtirish masalasini ilgari surgan. Shunga ko'ra u konstativlar (ma'qullash, tasdiqlash, e'lon qilish, javob akti, rozilik bildirish, taxmin qilish, inkor etish, xabar berish va boshqalar); direktivlar (maslahat, tanbeh, iltimos, taqiq, buyruq, ruxsat, iltimos, talab, ogohlantirish va boshqalar); komissivlar (garov, va'da, qasamyod, xizmatlar taklifi va boshqalar); tan olish (kechirim, hamdardlik bildirish, tabriklash, salomlashuv, minnatdorchilik izhori, taklifni qabul qilishga rozilik bildirish kabilarni)ni ajratadi [9].

Ko'rinadiki, K.Bax minnatdorchilik nutqiy aktlarini tan olish nutqiy aktlari sinfiga kiritgan.

D. Vunderlix esa minnatdorchilik nutqiy aktlarini satisfaktivlar sinfiga kiritadi [10]. Satisfaktivlarning illokutiv maqsadi nutq ishtirokchilarining ruhiy holatini aks ettirishdan iboratdir. Bu yondoshuvda satisfaktivlarni ekspressivlar sifatida qabul qilish mumkin.

J. Lich minnatdorchilik nutqiy aktlarini konviviallar sinfiga kiritadi. Bu sinfga mansub nutqiy aktlar taklif qilish, salomlashuv, tabriklash, minnatdorchilik bildirish kabilarni qamrab oladi. Konvivialarning illokutiv maqsadi xushmuomalalikni o'rnatish va uni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kommunikatsiyaning ijtimoiy maqsadlaridan biri – minnatdorchilik bildirishga muvofiq keladi [11].

Tilshunoslikda keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarning ayrimlarida minnatdorchilik nutqiy aktlari ekspressivlar sinfiga kiritilganligi kuzatiladi. Xususan, I.Kivenko ingliz badiiy diskursida ifodalangan minnatdorchilik nutqiy aktlarini tahlil qilgan ekan, ularda nutq egasining hissiy munosabati ifodalanganligini asoslaydi. Shunga ko'ra tadqiqotchi bu tipdagi nutqiy aktlarni ekspressiv nutqiy aktlar sinfiga kiritadi [12].

Xulosa qilish mumkinki, tilshunoslikda minnatdorchilik nutqiy aktlarini yagona nutqiy akt sinfiga birlashtirish masalasida yakdillik mavjud emas. Shunga qaramay, aytish mumkinki, bu nutqiy akt so'zlovchining o'zga bir insonning hatti-harakatidan minnatdorlik tuyg'usini his qilishini aks ettirishiga ko'ra inson ruhiyati

bilan bog'liq holda sodir etiladi. Shu jihatdan mazkur nutqiy akt turining inson hissiyotlarini aks ettiruvchi ekspressivlar sinfiga kiritilishi to'g'ri bo'ladi.

Tilshunoslikda minnatdorchilik nutqiy aktlarida illokutiv maqsadning ifodalanishi masalasida ham turlicha fikrlar ko'zga tashlanadi. Jumladan, I.Kivenko minnatdorchilik nutqiy aktlarining illokutiv maqsadi quyidagilardan iborat bo'lishini ta'kidlaydi:

1) insonning xulq-atvori yoki xatti-harakatiga ijobiy javob reaksiyasini bildirish:

- 2) muloqotdoshiga samimiy munosabat bildirish;
- 3) adresat harakatlariga ijobiy baho berish;
- 4) ziddiyatsiz va uyg'un muloqotni qo'llab-quvvatlash;
- 5) ijtimoiy tenglikni saqlash.

Bizningcha, ushbu kommunikativ maqsadlar quyidagilar bilan to'ldirilishi lozim:

1) nutqiy muloqotdan, sodir etilgan biror bir voqea-hodisa, ko'rsatilgan yordam, ehtiromdan yoki yashash tarzi va shu kabilardan qoniqish, shukronalikni namoyon qilish;

2) muloqot ijobiy ruhda kechishiga nutqiy ta'sir ko'rsatish, uning do'stona munosabatda o'tishiga erishish;

3) muloqot jarayonini yumshatish, uni salbiy oqibatlardan himoya qilish;

4) muloqot odobi, nutqiy etiket qoidalariga rioya qilishni namoyish qilish kabilar.

Minnatdorchilik nutqiy aktlarida qanday illokutiv maqsad ifodalanishini aniqlash uchun quyidagi she'riy matnni tahlil qilamiz:

**Rahmat**, qo'llarimdan tutganing uchun,

**Tashakkur!** Qorlarda kutganing uchun. (G.Asqarova. "She'rlar")

Birinchi misrada nutqiy akti semantik-sintaktik jihatdan shakllantirishga xizmat qilgan birlik rahmat so'zi bo'lib, minnatdorchilik ma'nosini ifodalaydi. Nutqiy aktdagi boshqa birliklar ushbu so'zning tinglovchiga nima sababdan qo'llanganligiga aniqlik kiritishga xizmat qilgan. Demak, bu o'rinda rahmat so'zi illokutiv vazifa bajarmoqda, ya'ni mana shu birlik orqali nutqiy aktda so'zlovchining qanday kommunikativ maqsadi aks etganligini bilish mumkin bo'ladi.

Keyingi misrada bu vazifani tashakkur birligi o'z zimmasiga olgan. Rahmat va tashakkur birliklarining semantik xususiyati hamda nutqiy aktlarni shakllantirganligini inobatga olib, har ikki misrada so'zlovchining minnatdorlik hissini bayon qilish maqsadi ifodalangan deb hisoblash mumkin.

Anglashiladiki, “nutqiy aktlar so‘zlashuvchilarning asosiy maqsad va niyatini ifodalovchi asosiy mazmuniy struktura sifatida namoyon bo‘ladi va muloqotning mazmun mundarijasini belgilash uchun xizmat qiladi” [14]. Minnatdorchilik nutqiy aktlaridan ko‘zlangan bosh illokutiv maqsad esa so‘zlovchining emotsional holatini aks ettirish, unda hosil bo‘lgan minnatdorlik hissini bayon qilishdan iboratdir. Ammo so‘zlovchi minnatdorchilikni ifodalovchi bu turdagi vositalardan faqat formal marker sifatida foydalanganda minnatdorlik hissini aks ettirish maqsadi ko‘zda tutilmaganligi seziladi.

Shu jihatdan minnatdorchilik nutqiy aktlarida illokutsiya, ya’ni kommunikativ maqsadning ifodalanishida quyidagi holatlar ko‘zga tashlanadi:

1. Minnatdorchilik nutqiy aktlari semantik-sintaktik strukturasi mohiyatidan kelib chiqqan holda intensiya ifodalanadi.

2. Minnatdorchilik nutqiy aktlari semantik-sintaktik strukturasi mohiyatiga zid tarzda boshqa intensiyalar ifodalanadi.

Insonning o‘zida hosil bo‘lgan minnatdorlik hissini namoyish qilish maqsadi minnatdorchilik nutqiy aktlari orqali yuzaga chiqqanda nutqiy akt semantik-sintaktik strukturasi va uning illokutiv belgisi bir-biriga muvofiq bo‘ladi. Ammo har doim ham minnatdorchilik nutqiy aktlarida insonning minnatdorlik hissi aks etavermaydi. Masalan, nutq egasi minnatdorlik nutqiy akti orqali e’tiroz yoki raddiya bildirishni maqsad qilganda nutqiy aktning illokutiv belgisi uning asl mohiyatiga mos bo‘lmaydi. Quyidagi matnga e’tibor qaratamiz:

Mansur boshini egib turdi-turdi-da, birdan intilib, uning iyagi ustiga chunon urdiki, muovin baayni sakrab tushib, qoyaga suyanib qoldi. Mansur yana olg‘a bosgandi, Shoto‘ra uni quchib ushladi.

– Ho‘v, ho‘v, esingni yig‘, uka... Mast-past emasmisan? Yo‘q, og‘zingdan hidi kelmayapti. Mansur endi Shoto‘raga tikilib qoldi-da, basharasiga tuflab yubordi. Shoto‘ra birdan tislani ketib, qo‘llarini osiltirgancha tek qoldi. So‘ng chuqur ho‘rsindi-da:

– **Ha, rahmat, uka,** – dedi. Keyin bir changal qor olib, yuzini ishqay boshladi. (Sh.Xolmirzayev. Saylanma)

Ushbu matnda tasvirlangan voqelik so‘zlovchining o‘ziga nisbatan sodir etilgan salbiy xatti-harakatdan norozi bo‘lganligini anglatadi. Bunday vaziyatda aytilgan rahmat, albatta, minnatdorchilikni ifodalashga xizmat qilmaganligi aniq. So‘zlovchi bu o‘rinda e’tirozini minnatdorchilik nutqiy akti orqali bildirgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, bunday minnatdorchilik nutqiy aktlarining semantik-sintaktik strukturasi va illokutiv xususiyati bir-biriga muvofiq bo‘lmaydi. Lekin shunga qaramay, Sh.Safarov qayd etganidek, “... gap struktur-semantik

mundariyasi va uning illokutiv imkoniyatlari o'rtasida tizimiy bog'liqlik mavjudligini e'tirof etmoq kerak. Agarda shunday bog'liqlik bo'lmaganda, tinglovchiga so'zlovchining muloqot maqsadini, u bajarayotgan nutqiy harakat mazmunini anglash qiyin bo'lar edi" [15]. Bunday holatda minnatdorchilik nutqiy aktida qanday kommunikativ maqsad yetakchilik qilayotganligiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

### References

1. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.33.
2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 81.
3. Варфоломеева И.В. Дискурсивное событие выражения благодарности в естественной коммуникации в английском и русском языках // [www.gramota.net/materials/1/2010/11-1/49.html](http://www.gramota.net/materials/1/2010/11-1/49.html)
4. Остин Дж. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике: Теория речевых актов. – М.: Прогресс, 1986. – С. 22-129.
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 83.
6. Ҳақимов М., Бурханова М. Нутқий актлар имплицит структура бирлиги сифатида // Сўз санъати, – Тошкент. 2021. – №4. – Б. 182.
7. Серль Дж. Р. Косвенные речевые акты // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1986. Вып. XVII. – С. 183.
8. Searle J.R. Expression and Meaning. Studies in the theory of speech acts. – New York: Cambridge University Press, 1979. – P. 15.
9. Bach K. Linguistic Communication and Speech Acts / K. Bach, R. Harnish. – L., Cambridge: MIT Press, 1980. – 327 p.
10. Wunderlich D. Modalisierte Sprechakte // G. Brünner, A. Redder Brünner, Redder Studien zur Verwendung der Modalverben mit einem Beitrag von Dieter Wunderlich. – Tübingen: Narr, 1983. – P. 226-245.
11. Leech G. Principles of Pragmatics. – London & New York: Longman, 1983. – P. 104-105.
12. Кивенко И. Иллокутивные цели речевого акта благодарности (на материале англоязычного художественного дискурса) // <https://www.sworld.com.ua/index.php/philosophy-and-philology-412/linguistics-and-foreign-languages-in-the-world-today-412/15046-412-0847>
13. Кивенко И. Иллокутивные цели речевого акта благодарности (на материале англоязычного художественного дискурса) //

<https://www.sworld.com.ua/index.php/philosophy-and-philology-412/linguistics-and-foreign-languages-in-the-world-today-412/15046-412-0847>

14. Ҳақимов М., Бурҳанова М. Нутқий актлар имплицит структура бирлиги сифатида // Сўз санъати, – Тошкент. 2021. – №4. – Б. 182.

15. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б.



## Xorazm viloyati sharoitida Yasmiqning “Sarbon” va “Darmon” navlarini yetishtirish agrotexnologiyasi

N.U.Zaribova, UrDU, Biologiya kafedrasida dotsenti, qx.f.f.d,

O.Sh.Atajonova, UrDU biologiya yoʻnalishi magistranti.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yasmiqning morfologik va bioekologik xususiyatlari haqida, shu bilan birgalikda, Xorazm viloyati sharoitida ekilgan yasmiqning “Sarbon” va “Darmon” navlarini yetishtirish agrotexnologiyasining qiyosiy tahlil natijalari bayon qilingan.

**Kalit soʻzlar:** “Sarbon”, “Darmon”, tugunak bakteriya, klechatka, juft patsimon, dukkakdoshlar oilasi.

**Аннотация:** В данной статье описаны морфологическая и биоэкологическая характеристика чечевицы, а также результаты сравнительного анализа агротехники выращивания сортов чечевицы «Сарбон» и «Дармон», выращиваемых в Хорезмской области.

**Ключевые слова:** «Сарбон», «Дармон», клубеньковая бактерия, клечатка, двойное перо, семейство бобовых.

**Abstract:** This article describes the morphological and bioecological characteristics of lentils, as well as the results of a comparative analysis of agrotechnology for the cultivation of "Sarbon" and "Darmon" varieties of lentils planted in Khorezm region. **Key words:** "Sarbon", "Darmon", nodule bacterium, clechatka, double feather, legume family.

**Kirish.** Yasmiq ( Lens L ) — dukkakdoshlar oilasiga mansub bir yillik, donli, oʻtsimon oʻsimlik turkumi. Yasmiqning ildizi oʻqildiz boʻlib, poyasining uzunligi 25-50 sm. Poyasi asosan tik, baʼzida esa yotib oʻsadi. Bargi murakkab, juft patsimon, uchida jingalaklari bor. Bargchalari oval shaklda. Gullari mayda, pushti, binafsha, koʻk, koʻpincha oq, barg qoʻltiqlarida 2-4 tadan joylashgan, oʻzidan changlanadi. Changchilari 10 dona, bittasi erkin, onaligi boshidan oxirigacha yapaloq shaklda. Mevasi dukkak, urugʻi yumaloq, sariq, pushti, yashil va jigarrang.

Yasmiq oʻsimligining baʼzi turlari oziq-ovqat ekini sifatida ham foydalaniladi. Ozuqa sifatida doni, yem-xashak sifatida esa somoni ishlatiladi. Urugʻi tarkibida 23-32 % oqsil, 0,6-2,1 % yogʻ, 47-70 % kraxmal, 2,3-4,4 % kul va 2,4-4,0 % kletchatka bor. Bundan tashqari yasmiq ildizlaridagi tugunak bakteriya orqali havodagi sof azotni oʻzlashtirish xususiyatiga ega. Yasmiqning koʻplab navlarining agrotexnikasi toʻliq organilmagan. Shuning ushun yasmiqning yangi navlarini

bioekologik xususiyatlarini va agrotexnikasini o`rganish muhim amaliy ahamiyatga ega.

**Material va metodlar.** Tajriba ob'ekti sifatida Yasmiqning ikkita o`rtapishar Sarbon va Darmon navlari tanlab olindi. Navlar 3-qaytariqda dala maydonchalarida o`rganildi, o`simliklar bo'yicha fenologik kuzatuvlar va hisoblash ishlari olib borildi. O`rganilayotgan dala tajribalari qabul qilingan ilmiy uslublar asosida o`tkazildi. Fenologik kuzatuvlar va biometrik o'lchash ishlarini olib borishda «Методы проведения полевых экспериментов» (УзПИТИ, 2007) qo'llanmasida ko`rsatilgan usullardan foydalanildi.

**Natija va munozara.** Tajribalar quyidagi yo'nalishlarda olib borildi: 1-nchi ikkita yasmiq Sarbon va Darmon navlarini uch xil ekish me'yorida 1,0 mln dona, 1,5 mln dona, 2,0 mln dona ekildi va turli xil ma'danli o'g'itlar me'yorida, fosfor 40 kg, fosfor 40 kg va kaliy 50kg, fosfor 60 kg, kaliy 50, fosfor 80 kg, kaliy 50 kg va fosfor 100 kg va kaliy 50 kg miqdorda berildi.

Tajriba dala uslubida, 3 karra takrorlanishda ekildi. Paykal yuzasi 48 kv.m (eni 2.40 m, uzunligi 20 m.), hisobga olingan o`simliklar soni 20 ta, variantlar soni 36 ta. Takrorlar ikki yarusda joylashtirildi. Har bir bo'lak (delyanka)ning boshi va oxirida himoya maydonlari uchun joy qoldiriladi. Gullash- pishish fazalari bu ikki navda o'zgarib borganligi ma'lum bo'ldi. Sarbon navida nazorat variantda gullashdan pishishgacha 32 kun vaqt o'tgan bo'lsa, Darmon navida bu muddat 36 kunni talab qildi. Sarbon navida P<sub>40</sub> kg berilgan variantda gullashdan pishishgacha 35 kun, P<sub>60</sub>K<sub>40</sub> bo'lgan variantda 36 kun, P<sub>80</sub>K<sub>60</sub> kg berilgan variantda 33 va P<sub>100</sub>K<sub>60</sub> berilgan variantda 37 kun muddat kerak bo'ldi.

Ushbu rivojlanish fazasi Darmon navida aniqlab ko'rilganda P<sub>40</sub> kg berilgan variantda gullashdan pishishgacha 37 kun, P<sub>60</sub> K<sub>50</sub> bo'lgan variantda 39 kun, P<sub>80</sub>K<sub>50</sub> kg berilgan variantda 39 va P<sub>100</sub>K<sub>60</sub> berilgan varintda 40 kun muddat kerak bo'ldi. G'unchalash davri "Sarbon" navida o'g'it me'yori oshgan sari 15-20 aprelda kuzatilib, me'yor oshganda bu davr 1-2 kun kechroq kuzatildi. "Darmon" navida g'unchalash davri may oyining boshida kuzatilib, o'g'it me'yori oshganligi evaziga bu davrning o'tishi 2-3 kunga kechikdi. Gullash davri "Sarbon" navida 15-20 mayda kuzatilib, ko'rinishlar bo'yicha farq 1-3 kunni tashkil qildi. "Darmon" navida bu davr may oyining 18-25 sanalariga to'g'ri keldi. Bu navda ham o'g'it me'yorlarning oshishi evaziga davrning o'tishi 2-4 kunga kechikdi. Dukkak hosil bo'lish davri may oyida kuzatildi. "Sarbon" navida bu 5-7 kunlarga, "Darmon" navida esa 7-10 kunlarga to'g'ri keldi.

Ma'dan o'g'it me'yori evaziga "Sarbon" navida davrning o'tishi 2-3 kunga va "Darmon" navida 1-3 kunga kechikdi. Ikkala navda ham o'g'it me'yori rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Pishish davri may oyining oxiri va iyun oyining boshlanishida kuzatildi. "Sarbon" navida pishish davri 26-29 may kunlari, "Darmon" navida esa 27 may va birinchi iyunda kuzatildi. Tajriba ma'lumotlaridan yasmiq navlarini rivojlanishi ma'danli o'g'it va nitragin ta'sirida 1-3 kunga kungacha o'zgargani qayd qilindi. Bu ma'lumotlardan ko'rinmoqdaki, yasmiqning "Sarbon" navi "Darmon" naviga qaraganda ertaroq pishib yetilganligi aniqlandi.

**Xulosa.** Har ikkala nav kesimida natijalar qiyosiy tahlil qilinganda quyidagi xulosaga kelindi. Ikkala nav ham bir xil vaqtda ekildi ammo pishish vaqti 1-2 kunga farq qildi, o'g'it me'yorlariga qarab ham o'simlikdagi o'sish fazalarida biroz farq sezildi. Tajriba yillarida olib borilgan kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha Sarbon navida o'suv davri nazorat variantda 70 kun, Darmon navida esa 77 kunni tashkil qildi. P<sub>40</sub> kg berilgan variantda Sarbon navida o'suv davri 75 kun, P<sub>60</sub> K<sub>40</sub> berilgan ma'danli o'g'it me'yorida 74 kun, P<sub>80</sub> K<sub>60</sub> kg bo'lgan me'yorda 73 va oxirgi variantda ham 73 kunda pishib yetilgani ma'lum bo'ldi. Darmon navida bu ko'rsatkichlar nisbatan boshqacha bo'lishiga sabab bu nav o'z biologiyasiga ko'ra o'rtapishar bo'lib Sarbon navidan kech pishib yetilganligi aniqlandi.

Yasmiqning bu navlari yuqori hosildorlik, oqsillilik va yog'lilik darajasi, ozuqa-don qiymati va mahalliy iqlim sharoitlariga moslashuvchanlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu navlar dehqonchilik sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish va aholi uchun sifatli oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yakubjonov O, Tursunov S, Muqimov J "Donchilik" 2009
2. Ataboyeva X, va boshqalar, O'simlikshunoslik. –T.: 2000
3. Oripov R, Xalilov N. O'simlikshunoslik. – T.: 2007
4. Rustamov A.S., Amanova M.E.. " Yasmiq ekinidan yuqori hosil yetishtirishda qo'llaniladigan agrotexnik tadbirlar" tavsiyanoma 2019 yil.

**Badiiy adabiyotda bolalarga xos ifodalarning pragmatik xususiyatlari  
ilmiy-pedagogik muammo sifatida.**

**Sharifov Jaxongir Galiyevich Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**o'qituvchisi e-mail. [jaxongir1982@gmail.com](mailto:jaxongir1982@gmail.com)**

**Annotation:** This article examines the development of children's speech not as an isolated process but in close connection with the pedagogical influence of adults on the child.

**Keywords:** Children's speech, speech development, pedagogy, folklore, oral poetic folk art, primary education, literary studies, linguistics, communicative competence, speech correction, monologic speech, emotional connection.

**Аннотация:** В данной статье речь идет о развитии детской речи не как об изолированном процессе, а в тесной взаимосвязи с педагогическим воздействием взрослых на ребенка.

**Ключевые слова:** Детская речь, развитие речи, педагогика, народное устное поэтическое творчество, начальное образование, литературоведение, лингвистика, коммуникативная компетентность, речевая коррекция, монологическая речь, эмоциональная связь.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bola nutqi va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishilarning bolaga pedagogik ta'siri bilan o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqadilar.

**Kalit so'zlar:** Bola nutqi, nutqni rivojlantirish, pedagogika, folklore, xalq og'zaki poetik ijodi, boshlang'ich ta'lim, adabiyotshunoslik tilshunoslik kommunikativ kompetentlik, nutqiy korrektsiya, monologik nutq, emotsional aloqa

Bola nutqini shakllantirish va rivojlantirish masalasi pedagogikaning asosiy muammolaridan bo'lib kelgan. Darhaqiqat, bolalar nutqining shakllanishi bir qancha omillarga bog'liq va ularni tahlil qilish mazkur muammoning echimiga nisbatan to'g'ri yondashuvni qaror toptiradi. Mazkur omillar sifatida oila va ta'lim muassasasidagi muhit, bolaning ruhiy holati, imkoniyatlari, jismoniy salomatligi, faolligi, axloqiy va estetik sifatlarini keltirish mumkin. Bola nutqini rivojlantirishda boy folklor namunlarining o'rnini, shuningdek, xalq og'zaki poetik ijodi (tadqiqotda ixchamlikni ta'minlash maqsadida keyingi o'rinlarda XOPI abbreviaturasi bilan ishlatiladi)dagi bir qator janrlarning ruhiy va fiziologik ta'sir imkoniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash bugungi kun tilshunoslik, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik, psixologiya va pedagogika kabi fanlarning dolzarb masalalaridan

hisoblanadi. Mavzuning bir necha fanlar kesishmasidan joy olishi uning keng qamrovli ilmiy muammo ekanligini ko'rsatadi.

Olib borilgan ilmiy ish va tadqiqotlarni tahlil hamda tavsif etish boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalar nutqini takomillashtirishning ilmiy asoslari va tadqiq etish darajasini aniqlash imkoniyatini beradi.

Boshlang'ich ta'lim yoshidagi Badiiy adabiyotda bolalarga xos ifodalarning pragmatik xususiyatlari masalalarini tadqiq etish mamlakatimizda o'tgan asrning 50-yillarida boshlangan. Boshlang'ich ta'lim sohasini birinchilardan bo'lib o'rgangan olimlardan A.V.Nikolskaya mahalliy millat bolalariga rus tilini o'qitish kontekstida muammoni tadqiq etadi. A.V.Nikolskaya tomonidan o'tkazilgan sinov tadqiqotlari (1958-60 yillar) natijasida boshlang'ich katta yoshli o'zbek bolalariga ruscha og'zaki nutqni o'rgatish metodikasining asosiy mazmuni belgilangan va uning asosiy masalalari ishlab chiqilgan.

XX asrning 70-yillarida A.V.Nikolskayaning ilmiy rahbarligi ostida E.M.Razbaeva tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarda o'qilgan asarlar asosida kattalar mehnatiga hurmatni tarbiyalashda folklor asarlarining o'rni yoritilgan. Xususan, mazkur tadqiqotda mehnat va marosim qo'shiqlari vositasida yoshlarda ijtimoiy foydali mehnatning inson kamolotidagi o'rni, mehnatning mukammal tarbiya vositasi ekanligi, o'zbek XOPI dan (xalq ertaklari, o'yinlari) foydalanish asosida atrofdagilarga adolatli munosabatda bo'lishni shakllantirish masalalari o'zbek folklori namunalari vositasida tahlil qilingan.

Mazkur tadqiqotlar folklorning inson ma'naviy kamolotidagi o'rni, xususan, bola tarbiyasidagi ahamiyati nechog'lik katta ekanligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, "Folklor barcha san'atning boshlanishi, sarchashmasi, shu sababli ham boshqa ko'pgina san'atlar bilan uyg'unlikka ega, shuning bilan birga hech biriga o'xshamagan o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi alohida san'at turidir. Bu soha o'z ichiga musiqa, raqs, hunarmandchilik, tasviriy, badiiy va boshqa san'atlar bilan bog'liq tasavvurlarni qamrab oladi. Boshqacha aytsak, og'zaki ijod xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini o'zida ifoda etuvchi, uning taqdiri bilan chambarchas bog'liq ijodiy jarayondir. Shuning uchun ham allomalarimiz uni el adabiyoti deb atagan. Biror bir xalqning qanday xalq ekanligini bilish uchun dastavval uning folkloriga nazar solish lozim bo'ladi... Har qanday san'atning boshi folklorida, degan gap bugun paydo bo'lgan emas. U uzoq yillik hayotiy kuzatish, ilmiy tajribaning hosilasi. Haqiqatdan ham tasviriy, hunarmandchilik, musiqa, raqs, so'z va boshqa san'at turlarining avvali-boshi, yuzaga kelishi bevosita XOPI ga, xalqning ilk tasavvur va ishonchlariga borib taqaladi".

XOPI, shubhasiz, bola tarbiyasida, xususan, ularning nutqini rivojlantirishda katta imkoniyatlar va juda boy qadriyatlarga ega so'z san'ati turidir. Xususan, uning ertak, afsona, rivoyat, tez aytish, topishmoq, maqol kabi janrlari o'quvchi-yoshlarning dunyoqarashini, tasavvurini, tafakkur imkoniyatlarini, xotirasini, ruhiyatini, nutqini tarbiyalashda bemisli ahamiyatga ega ekanligi mazkur janrlarning o'ziga xosligi va ichki imkoniyatlarida namoyon bo'ladi.

O'tgan asrning oxirgi choragidan hozirgi kungacha boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish, bunga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar mahalliy olimlar: F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, G.X.Jumasheva, D.R.Babaeva, D.Abdurahimova, L.R.Mirjalilova, N.SH.Nurmuhammedova va boshqalar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan.

Ushbu tadqiqotchilar bola nutqi va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishilarning bolaga pedagogik ta'siri bilan o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqadilar. Ushbu yondashuv o'rinlidir, zero fandagi zamonaviy tadqiqotlar nutqning shakllanishi va rivojlanishi muayyan ijtimoiy omillarga bog'liq ekanligini, bu tafakkur bilan bog'liq, biroq u stixiyali jarayon emas ekanligini ko'rsatmoqda. Demak, bola nutqining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq qilish, ularni tasniflash, ularning ta'sir imkoniyatlarini o'quv amaliyotiga joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega ilmiy-pedagogik muammolar hisoblanadi.

F.R.Qodirovaning tadqiqotlarida maktabgacha katta yoshdagi Badiiy adabiyotda bolalarga xos ifodalarning pragmatik xususiyatlarida nutq shakllaridan foydalanishning pedagogik-psixologik omillari, bolalarga xorijiy tillarni o'rgatishning lingvopedagogik muammolari, rusiyzabon bolalarga o'zbek tilini o'rgatishning uslubiy xususiyatlari kabi masalalar yoritilgan. Xususan, Badiiy adabiyotda bolalarga xos ifodalarning pragmatik xususiyatlarida ularning so'z boyligini oshirish ustida ishlash, xotirasini kuchaytirish, dialogik nutq shaklidan foydalanishning uslubiyati, badiiy asarlar, xususan, XOPIning ertak, rivoyat, afsona kabi nasriy janrlaridan foydalanishning uslubiy va pedagogik xususiyatlari keng ko'lamda tahlil qilingan.

R.M.Qodirovaning tadqiqotlarida esa besh-olti yoshli bolalar nutqini rus tilini o'qitish jarayonida rivojlantirishning omillari tadqiq etilgan. Xususan, bolalarning nutqini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari, bolalarga rus tilini dialogik nutq vositasida o'qitishning uslubiyati, rus tilini o'qitish jarayonida bolalarda baynalminallik va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish masalalari tahlil qilingan.

D.R.Babaevaning tadqiqotlarida Badiiy adabiyotda bolalarga xos ifodalarning pragmatik xususiyatlarining ilmiy-pedagogik shart-sharoitlari, nazariy, tashkiliy-pedagogik va metodik tomonlari, Badiiy adabiyotda bolalarga xos ifodalarning pragmatik xususiyatlarida oilaning o'rnini, mazkur muammoni ta'lim jarayonida rejalashtirish va tashkil etish, tevarak-atrof bilan tanishish jarayonida bolalar nutqini o'stirish usullari, bolalarning tevarak-atrofnini bilish jarayoni bilan bog'liq nutqni rivojlantirish texnologiyasi kabi masalalar tadqiq etilgan.

Insoniyat taraqqiyoti tadrijida til, nutq va tafakkurning ahamiyati katta. Shu o'rinda ushbu tushunchalarning lingvistik tahliliga bir oz to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Til ong va tafakkur bilan chambarchas bog'liq. Bu ikki tushuncha bir-birini taqazo etadi va biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydi. Tafakkur jarayoni ongimizda til elementlari ko'rinishida kechadi. So'z va boshqa til unsurlari tushuncha sifatida ongda tafakkur yuritish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon til unsurlarisiz amalga oshmaydi. Demak, til ong va tafakkur bilan chambarchas bog'liq.

Tadqiqot mavzusi til va nutq tushunchalari munosabatiga ham oydinlik kiritishni taqozo qiladi. Til kishilar o'rtasida o'zaro aloqa-aralashuvning eng mukammal vositasidir. Turli xil mimik va pantomimik harakatlar, belgilar, ramzlar, shartli qisqartmalar ham aloqa aralashuv vositasi sifatida qaraladi, ammo ular tilning o'rnini bosa olmaydi. Nutq esa aloqa-aralashuv vositasining reallashuvi, tilning voqelikka aylangan shaklidir. Umuman, bu ikki tushuncha o'zaro sabab-oqibat, imkoniyat-voqelik va mohiyat-hodisa munosabatlariga ko'ra farqlanadi. Til imkoniyat shaklida mavjud va uning reallashuvi, ya'ni voqelikka, hodisaga aylanishi nutq bilan hosil bo'ladi. Shu jihatdan olib qaralganda, til umumiy, nutq esa xususiy hodisalardir. Til imkoniyatlaridan har bir inson o'z nutqiy qobiliyatiga yarasha foydalanadi. Ana shu nutqiy qobiliyatni rivojlantirish tilshunoslik, adabiyotshunoslik, pedagogika, psixologiya kabi bir qancha fanlarning tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Nutq stixiyali jarayon emas ekan, demak uni rivojlantirish muayyan omillarga bog'liq va o'sha omillarga maqsadga muvofiq ta'sir qilish orqali kishining nutqiy qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

Nutq insonning jamiyatda to'laqonli harakatlanishi va ma'naviy kamolotini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Xususan, bolaning dastlabki ijtimoiy munosabatlarga kirishuvida nutqning o'rnini beqiyos. Umuman, bola shaxsi va undagi barcha asosiy ruhiy jarayonlarning (qabul qilish, fikrlash va boshqa) shakllanishi ham nutqiy omillar bilan bevosita bog'liq. Bolaning ruhiy jihatdan shakllanishida nutqning alohida o'rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga

yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo'yadi. Insonning ma'naviy kamoloti uning nutqiy qobiliyatiga (yozma, og'zaki) proporsional ravishda kechadi.

Bolalarda nutq rivojlanishini rag'batlantiruvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etish kalitidir.

Rossiya ilm-fanida nutq ontogenezi bilan bog'liq dastlabki tadqiqotlar L.S.Vo'gotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga va A.N.Leontevning faoliyat nazariyasiga tayangan holda amalga oshirilgan. Ularga ko'ra, bola nutqining paydo bo'lishi va rivojlanishi uning ijtimoiy munosabatlar, xususan, odamlar bilan muloqot jarayonida ro'y beradi, degan qarashlar tizimi shakllandi. Bunda bola kattalarning nutq namunalari sust ravishda qabul qilib olmaydi, balki u nutqni umuminsoniy tajribaning bir qismi sifatida faol o'zlashtiradi.

L.S.Vo'gotskiy va A.N.Leontevning qoidalariga tayangan holda, A.A.Leontev asosiy faoliyat turi sifatida qaraydigan nutqiy faoliyat shakllanishi kontseptsiyasini ishlab chiqadi. Uning qayd etishicha, bola nutqini rivojlantirish – bu, eng avvalo, muloqot usullarini rivojlantirish bo'lib, ularni o'zlashtirish til qobiliyatini shakllantirishni talab qiladi. Til qobiliyatlarini shakllantirish, bir tomondan, nerv-psixologik mexanizmlarning etilganligi bilan, boshqa tomondan esa, ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq.

Muloqot – bolada so'zning vujudga kelishi va uning muddatlari, bola nutqi takomillashishining darajasini belgilab beruvchi muhim omildir. Ontogenezda nutq, avvalo, muloqot shakli, keyinchalik esa tafakkur yuritish va o'z-o'zini hamda xulqini boshqarish vositasi sifatida rivojlanadi.

Nutq ontogenezi haqidagi tadqiqotlarda nutqning rivojlantirishi, birinchidan, tashqi ta'sirlar vositasida yuz berishi, ikkinchidan, "o'z-o'zini harakatga keltirish" vositasida to'satdan yuz berishi mumkinligi aytiladi.

Bolalarda nafaol nutqni o'zlashtirish jarayoni va ularning dastlabki so'zni aytishlari quyidagi uch jihatga, ya'ni emotsional aloqalar, birgalikdagi harakat chog'idagi aloqalar, tovushli aloqalardan iborat bo'lgan kommunikativ omilga bog'liq bo'ladi. Bolaning til elementlarini o'zlashtirish borasidagi natijalari muloqot jarayonini ta'minlovchi mazmunli va ravon nutqqa bevosita bog'liq. Aniq, tushunarli nutq bolalarda so'z zahirasi oshirilganlik darajasini belgilovchi ko'rsatkich bo'lib, u bolaning aqliy rivojlanish darajasi, estetik did va emotsional imkoniyatlarini ham belgilaydi.

Bolaning nutqiy rivojlanganlik darajasi uning monologik nutqdan foydalanish darajasiga hamohang ravishda belgilanadi. Nutqning bu shaklini rivojlantirish

nazariyasining takomillashuvi bolalar ravon nutq turlari va fikr bildirishning turli xillarini o'zlashtirish xususiyatlarining chuqur tadqiq etilishi bilan tavsiflanadi. Izohlovchi nutqlar, mulohaza shaklidagi jumalarning xususiyatlari o'rganiladi va uning negizida bolalarga monologlarning turli xillarini o'rgatish metodikasi yaratiladi. O.S.Ushakova va F.A.Soxinlar tomonidan bolalarda sifatli nutqni shakllantirish borasida olib borilgan ishlar nutqning aniqlik, izchillik xususiyatlaridan tashqari boshqa xususiyatlarining ham aniq mezonlarini belgilashni taqozo qilmoqda. Shu jihatdan, aniqlik va izchillikdan tashqari bolalar nutqiga xos bo'lgan yana quyidagi xususiyatlarni va ularning mezonlarini ko'rsatish mumkin:

- **mantiqiylik:** nutqning hayotiy voqelik va qonuniyatlarga asoslanishi;
- **to'g'rilik:** faktlarga asoslanganlik;
- **uzviylik:** nutqiy bo'laklar aloqadorligining ta'minlanishi;
- **tezkorlik:** fikrlash jarayoni va uning reallashuvi darajasining oshishi.

Mazkur sifatlar bola nutqida to'laqonli kompleks ravishda ta'minlanishiga erishish nutqning ravon va maqsadga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bola nutqida mazkur xususiyatlar har xil darajada rivojlanishini ta'minlashda nutqiy korreksion metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Badiiy adabiyotda bolalarga xos ifodalarning pragmatik xususiyatlarining metodologik muammolarini ilmiy asosda o'rganishda quyidagi muhim jihatlarni e'tiborga olishni taqozo qiladi:

- boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalar nutqini noqulay nutqiy muhit sharoitida rivojlantirishda ta'lim va tarbiya hal qiluvchi omil hisoblanadi;

- ravon nutqni shakllantirish jarayoni muayyan qoliplarga solinmaydigan, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olishni taqozo qiladigan ijodiy jarayondir;

- nutq har bir bolada individual holatda shakllanadigan xususiy hodisa bo'lib, uni tarbiyalash ham umumiy qonuniyatlardan tashqari individual yondashuvlarni talab qiladi;

- nutqiy tarbiya va unga qaratilgan metodik ishlar kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilmog'i maqsadga muvofiq: xususan, tilni o'zlashtirish nutqiy muloqot jarayonini engillashtirish, ijtimoiy munosabatga kirish bilan bog'liq to'siqlarni engishga qaratilishi lozim;

- o'qitishda bola bilan o'zaro muloqotga kirishishning xususiyati bola uchun ma'qul bo'lgan muloqot shakli bilan olib borilishiga erishish lozim;

- nutqiy tarbiyada tilning nutqiy faoliyat strukturasi va uning undov-motivatsiya, yo'naltirish-tadqiqot, ijro komponentlarini hisobga olgan holda ish olib borish talab etiladi;

- tilning nazariy asoslari bo'yicha tashkil qilingan dars mashg'ulotlarida o'quvchilarda, avvalo, ravon nutqni tarbiyalash va shunga muvofiq dastur mazmunini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalar nutqini tarbiyalash muammosi bo'yicha ilg'or metodikalarni ishlab chiqishda mazkur metodologik holatlar inobatga olinishi lozim.

Umuman, Badiiy adabiyotda bolalarga xos ifodalarning pragmatik xususiyatlari sohasida olib borilgan psixologik- pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

- nutqni tarbiyalash bolaning o'ziga xos aqliy va ruhiy rivojlanishida asosiy o'rin tutuvchi, ijtimoiy munosabat

ga kirishishning murakkab, ko'p qirrali omillaridan biridir;

- nutqni tarbiyalash muayyan umumiy qonuniyatlarga asoslansa-da, lekin unga stixiyali jarayon sifatida qarash noto'g'ri xulosalarga sabab bo'ladi;

- bola nutqini rivojlantirish jarayonini boshqaruvchi pedagog bu jarayonning turli yosh bosqichlaridagi qonuniyatlari, mexanizmlari, o'ziga xosliklarini bilishi, nutqiy rivojlantirishning o'ziga xosliklarini ko'ra olishi va bolaning individualligini hisobga olgan holda, uning nutqiga ta'sir ko'rsatishning eng samarali yo'llarini tanlashi lozim.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1.Громова О.Е. Формирование начального детского лексикона в условиях направленного коррекционно-развивающего обучения. Дисс. кан. пед. наук. –М.: 2003.

2.Блинова Д.Е. Когнитивно-фреймовая характеристика детской речи на раннем этапе развития. Дисс. кан. фил. наук. –М.: 2012.

3.Гагарина Н.В. Становление грамматических категорий русского глагола в детской речи. Автореф. дисс. кан. фил. наук. –С.Пт.: 2009.

4.Мартынова Е.В. Вербализация локативных ситуаций в речи дошкольного возраста. Дисс. кан. фил. наук. –Саратов.: 2008.

5.Насонова О.А. Формирование образно-эмоциональной стороны речи учащихся первого класса при обучении русскому языку средствами фольклора. Автореф. дисс. кан. пед. наук. –Орел: 2008.

## Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy talabalarni o'qitishning me'yoriy-xuquqiy asoslari

Matchanova Nargiza To'lqinovna

Ma'mun universiteti "Psixologiya va sport" kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi oliy ta'lim muassasalarida xorijiy talabalarni o'qitishning me'yoriy-xuquqiy asoslari o'rganiladi. Xorijiy talabalarni o'qitish jarayoni nafaqat akademik, balki ijtimoiy va madaniy integratsiya masalalarini ham o'z ichiga oladi. Bu jarayon, har bir davlatning ta'lim tizimiga mos ravishda me'yoriy huquqiy hujjatlar orqali tartibga solinadi. Tezisdagi O'zbekiston Respublikasi, shuningdek, xorijiy talabalarning o'qish jarayonini samarali tashkil etish uchun qabul qilingan qonunlar, qarorlar va ta'lim sohasi bo'yicha ishlab chiqilgan hujjatlar ko'rib chiqiladi. Xorijiy talabalar uchun o'qitishning huquqiy asoslari, ularning huquqlari va majburiyatlari, shuningdek, o'quv muassasalarining majburiyatlari aniq ifodalangan. Tadqiqot, xorijiy talabalar uchun ta'lim imkoniyatlari yaratish, ularning o'qish jarayonini soddalashtirish va ularning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan me'yoriy hujjatlar va qonunlarni yoritadi.

**Kalit so'zlar:** xorijiy talabalar, oliy ta'lim, me'yoriy-huquqiy asoslar, ta'lim tizimi, ta'lim qonunchiligi, xorijiy talabalarga oid huquqlar, ta'lim sohasi hujjatlari, integratsiya, o'qish jarayoni,

**Annotation:** This thesis explores the legal and regulatory framework for the education of international students in higher education institutions. The process of educating international students involves not only academic but also social and cultural integration issues. This process is regulated by legal and regulatory documents in accordance with the education system of each country. The thesis examines the laws, decrees, and educational documents adopted in the Republic of Uzbekistan for effectively organizing the study process of international students. The legal foundations of education for international students, their rights and obligations, as well as the responsibilities of educational institutions, are clearly outlined. The study highlights the legal documents and laws aimed at creating educational opportunities for international students, simplifying their educational process, and ensuring their social integration.

Evolyutsion tarixi. Ginkgodoshlarning qazilma qoldiqlari shuni ko‘rsatadiki, bu o‘simlik turi yer yuzida ilk bora perm davrida paydo bo‘lgan. Ginkgo biloba filogenetik jihatdan eng qadimgi ochiq urug‘li o‘simliklardan biri bo‘lib, unga yaqin bo‘lgan boshqa turlar butunlay yo‘q bo‘lib ketgan. Bo‘r davridan boshlab, ginkgo turlarining xilma-xilligi kamaygan va hozirda faqat Ginkgo biloba turi saqlanib qolgan. Uning genetik barqarorligi va moslashish qobiliyati uning uzoq umr ko‘rishiga yordam bergan.

Tarqalishi va tabiiy muhit. Bugungi kunda ginkgo tabiiy holda faqat Sharqiy Xitoyning Tyan-mu Shan tog‘larida uchraydi. Tarixan, u Yaponiya, Xitoy va Koreyada muqaddas daraxt sifatida ekilgan. 1730-yillarda ginkgo G‘arbiy Yevropaga, 1780-yillardan keyin esa Shimoliy Amerikaga olib kelingan. O‘zbekistonda esa 1920-yillardan boshlab manzarali daraxt sifatida yetishtirilmogda. Ginkgo urbanizatsiyaga yaxshi moslashgan bo‘lib, ifloslangan havoda ham o‘shishi mumkin. Shuningdek, u turli iqlim sharoitlariga moslashish xususiyatiga ega.

Biologik xususiyatlari. Ginkgo biloba balandligi 30-40 metrgacha yetadigan, barglarini qishda to‘kadigan daraxt hisoblanadi. Uning barglari yelpig‘ichsimon, ikki bo‘lakli shaklda bo‘lib, boshqa daraxt turlariga o‘xshamaydi. Barglari tarkibida flavonoidlar, terpenoidlar va boshqa bioaktiv moddalar mavjud bo‘lib, ular organizm uchun foydali hisoblanadi. Poyasining o‘zak qismi yaxshi rivojlanmagan, ammo kambiy va po‘stloq parenximasi ancha taraqqiy etgan. Ignabarglilar oilasidan farqli ravishda, unda smola hosil bo‘lmaydi.

Ko‘payishi va changlanishi. Ginkgo ikki uyli o‘simlik bo‘lib, erkak va urg‘ochi daraxtlari alohida o‘sadi. U 20-30 yoshga yetgandan keyin chang va urug‘ bera boshlaydi. Erkak o‘simlik mikrostrombillarga, urg‘ochi o‘simlik esa megastrombillarga

ega. Chang shamol yordamida tarqalib, urug'kurtakning chang kamerasiga tushadi. Mikrosporalardan ikkita harakatchan spermatozoid hosil bo'lib, tuxum hujayrani urug'lantiradi. Ginkgo urug'ida tinim davri kuzatilmaydi.

Ekologik moslashuvchanlik. Ginkgo biloba juda uzoq umr ko'ruvchi daraxt hisoblanadi. Xitoy, Koreya va Yaponiyada 1000 yildan ortiq yashovchi namunalari uchraydi. U qurg'oqchilik, kasalliklar va zararkunandalarga nisbatan yuqori chidamlilikka ega. Shuningdek, havoning ifloslanishiga bardosh bera olishi tufayli shahar muhitida ham yaxshi o'sadi. Bu xususiyatlari uni manzarali daraxt sifatida ekish uchun juda qulay variantga aylantiradi.

Tibbiy ahamiyati. Ginkgo biloba qadim zamonlardan buyon an'anaviy tibbiyotda qo'llanilgan. Uning barglari va urug'lari ko'plab foydali moddalarni o'z ichiga oladi. Asosiy tibbiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Miya qon aylanishini yaxshilash: Ginkgo ekstrakti qon aylanishini kuchaytirib, xotira va kognitiv funksiyalarni yaxshilaydi.

Neyrodegenerativ kasalliklarning oldini olish: Altsgeymer va Parkinson kasalliklariga chalinish xavfini kamaytiradi.

Antioksidant xususiyatlari: Erkin radikallarning zararini kamaytirib, hujayralarni himoya qiladi.

Yurak-qon tomir tizimiga foydali ta'sir ko'rsatadi: Qon bosimini pasaytiradi va tromboz xavfini kamaytiradi.

Ko'z salomatligi uchun foydali: Ginkgo ekstrakti ko'z bosimini pasaytirib, glaukoma rivojlanishining oldini olishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotlar va istiqbolli yo'nalishlar. Hozirgacha Ginkgo biloba bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan. Xususan, 2019-yilda o'tkazilgan tadqiqotlarda ginkgo ekstrakti miya faoliyatini yaxshilashi ilmiy jihatdan tasdiqlangan. Bundan tashqari, u qon bosimini normallashtirish va depressiyani kamaytirish bo'yicha ham samarali natijalar bergan. Keyingi yillarda bu daraxtning genetik barqarorligi va ekologik moslashuvchanligi bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar olib borilishi rejalashtirilgan.

### **Xulosa**

Ginkgo biloba nafaqat qadimiy evolyutsion o'simlik, balki ekologik va tibbiy jihatdan ham juda foydali daraxtdir. Uning tabiiy muhitda saqlanib qolishi muhim ekologik ahamiyatga ega, shuningdek, urbanizatsiya sharoitida ham muhim rol o'ynaydi. Tibbiyot va farmakologiyada keng qo'llanilishi uning qiymatini yanada oshiradi. Shu sababli, Ginkgo bilobani yanada chuqur o'rganish va saqlash bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirish lozim.

Bu daraxtning noyob xususiyatlari insoniyatga katta foyda keltirishi mumkin. Shu boisdan, uni ekish, parvarish qilish va genetik jihatdan himoya qilish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'.Pratov, Q.Jumayev. Yuksak o'simliklar sistematikasi. 60-bet.
2. O'.Pratov, L.Shamsuvaliyeva, E.Sulaymonov, X.Axunov, K.Ibodov. V.Mahmudov. Botanika. 158-bet
3. [www.Wikipedia](http://www.Wikipedia) [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz) [www.botanic.uz](http://www.botanic.uz)

**Ginkgo biloba L. o'simligining botanic tavsifi, tarqalishi va ahamiyati**  
**Botanical description, distribution and significance of Ginkgo biloba**  
**L.plant**

**Ботанеское описание, распространение и значение растения Гинкго**  
**билоба Л.**

Andijon davlat pedagogika instituti  
Aniq va tabiiy fanlar  
Biologiya yo'nalishi 103-guruh talabasi  
**Abdumalikova Habibaxon**

**Annotatsiya.** Mazkur tezisdagi Ginkgo biloba o'simligining botanika tavsifi, tabiiy tarqalishi hamda inson faoliyati uchun ahamiyati yoritilgan. O'simlikning qadimiy kelib chiqishi, barglarining o'ziga xos shakli va changlanish jarayoni haqida ma'lumot berilgan. Uning Xitoyda tabiiy holda uchrashi, lekin dunyoning boshqa qismlarida ham madaniy holda o'stirilayotgani qayd etilgan. Shuningdek, Ginkgo biloba ning tibbiyotdagi roli, ayniqsa, qon aylanishi va asab tizimiga foydali ta'siri muhokama qilingan.

**Abstract.** This thesis discusses the botanical description, natural distribution and importance of Ginkgo biloba for human activity. Information is provided about the ancient origin of the plant, the unique shape of its leaves and the pollination process. It is noted that it occurs naturally in China, but is also cultivated in other parts of the world. The role of Ginkgo biloba in medicine, especially its beneficial effects on blood circulation and the nervous system, is also discussed.

**Аннотация.** В диссертации даны ботаническое описание, природное распространение и значение растения гинкго двулопастного для жизнедеятельности человека. Приводятся сведения о древнем происхождении растения, уникальной форме его листьев и процессе опыления. Сообщается, что он встречается в природе в Китае, но также культивируется и в других частях мира. Также обсуждалась роль Гинкго двулопастного в медицине, особенно его благотворное влияние на кровообращение и нервную систему.

**Kalit so'zlar.** Biologik xususiyatlari, Tarqalishi, Ekologik ahamiyati, Tibbiy ahamiyati, Dorivor xususiyatlar.

**Keywords.** Biological properties, Distribution, Ecological importance, Medical importance, Medicinal properties

**Ключевые слова.** Биологические свойства, Распространение, Экологическое значение, Медицинское значение, Лечебные свойства.

**Kirish.** Mazkur oila bitta yagona turni (ikki bolakli ginkgo Ginkgo biloba L.) oz ichiga olgan. Ginkgo biloba o'simligi faqat Janubiy Xitoyda yovvoyi holda uchraydi. Bu daraxt birinchi marotaba XVIII asrda Evropa bilan Amerikadagi botanika bog'lariga olib kelingan. MDH hududida ginkgo biloba Qrimda, Kavkazning Qora dengiz qirgoqlarida o'stiriladi. Ginkgo respublikamizning Toshkent, Samarqand, Andijon kabi shaharlari parkida o'sadi. Bu yirik daraxtning boyi 30-40 m ga etadi. Bargi bandli, barg plantinkasi elpigichni eslatadi. Ortasi biroz tilingan bu barglar har yili qish mavsumida tokiladi. Ginkgo biloba ikki uyli o'simlik, otalik qubbachasi boshqa osimlikda sirgasimon shaklda bo'ladi. Shamol yordamida changlanadi. Changi bevosita urug'kurtakda o'sib, chang naychasi hosil qiladi. Urug'lanish oldidan bu naychada ikkita yirik, xarakatchan spermatozoid hosil boladi. Bu spermatozoid naycha orqali tuxum hujayraga borib qoshiladi. Ginkgoning rivojlanish sikli sagovniklarning rivojlanish sikliga o'xshaydi, ammo vegetativ organlari topgullarining tuzilishi jihatidan ulardan jiddiy farq qiladi. Tibbiyotda qo'llanilishi va kimyoviy tarkibi. Oxirgi yillarda Ginkgo biloba daraxti bargidan ajratib olinayotgan birikmalar farmokoterapiya sohasida bir qancha nerv va qon tomirlari kasalliklarida, ateroskleroz, xotirani yaxshilash va diqqatni jamlashda keng foydalanilmoqda. Ekologik ahamiyatida esa Ginkgo ifloslangan shahar havosiga chidamli bo'lib, shahar ko'chalari va xiyobonlarida ekish uchun mos keladi. Kasallik va zararkunandalarga nisbatan yuqori chidamlilikka ega.

Xulosa: Inson va hayvonlar organizmda ro'y beradigan turli kasalliklarni davolashda ishlatiladigan dori-darmonlar ichida shifobaxsh o'simliklardan tayyorlanayotgan dorilar salmoqli o'rin tutadi. Juda ko'p dorivor o'simliklar dorixonalarda sotilmaydi, balki dori-darmonlar ishlab chiqarishdagi asosiy homashyo hisoblanadi. Biz dori-darmonlardan foydalanayotganimizda, ko'pincha ularni shifobaxsh o'simliklardan tayyorlanganligi xayolimizga ham kelmaydi. Masalan: kardiovalen- yurak kasalliklarini davolashda qollanadigan dorilardan biri bo'lib, u do'lana, asarun(valeriana), sariqgul (adonis) va boshqa bir qancha birikmadan tayyorlanadigan murakkab brikmadir.

### Foydlanilgan adabiyotlar

1. Teshaboyeva, M., Mamanazarov, B., & Sayramov, F. (2022). LAMIACEAE OILASINING ZIRAVORLIK XUSUSIYATIGA EGA TURLARI. Science and innovation, 1(D8), 509-514.

2. Yusupova, Z. A., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). LAMIACEAE OILASINING EFIR MOYIGA BOY BO'LGAN BAZI TURLARINING MORFOLOGIYASI. Scientific Impulse, 1(2), 692-695.

<https://uz.wikipedia.org>

**GINKGO BILOBA L. O‘SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI,  
O‘SIMLIKLAR QOPLAMIDAGI O‘RNI, TARQALISHI VA AHAMIYATI**

Andijon Davlat Pedagogika Insituti  
Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti  
Biologiya yo‘nalishi 103-guruh talabasi  
**Janibekova Yulduzxon**

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Ginkgo biloba L. o‘simligining botanik tavsifi, tarqalishi, ekologik ahamiyati va insoniyat uchun foydalari tahlil qilingan. Ginkgo biloba – dunyodagi eng qadimgi o‘simliklardan biri bo‘lib, uning biologik va ekologik xususiyatlari ko‘plab fan tarmoqlari uchun muhimdir. Maqolada uning morfologik xususiyatlari, tabiiy areali va inson faoliyati natijasida tarqalishi haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan

**Annotation**

This article analyzes the botanical description, distribution, ecological significance, and benefits of Ginkgo biloba L. for humanity. Ginkgo biloba is one of the oldest plants in the world, with unique biological and ecological characteristics that are of great importance to various scientific disciplines. The article provides detailed information on its morphological features, natural habitat, and spread due to human activities

**Аннотация**

В данной статье анализируются ботаническое описание, распространение, экологическая значимость и польза Ginkgo biloba L. для человечества. Ginkgo biloba – одно из самых древних растений в мире, обладающее уникальными биологическими и экологическими характеристиками, которые представляют большой интерес для различных научных дисциплин. В статье приведена подробная информация о морфологических особенностях, природном ареале и распространении растения вследствие деятельности человека.

Kalit so‘zlar: Ginkgo biloba, qadimgi o‘simlik, botanik tavsif, ekologik ahamiyat, tibbiyot, farmatsevtika, tarqalish.

Keywords: Ginkgo biloba, ancient plant, botanical description, ecological significance, medicine, pharmaceuticals, distribution.

Ключевые слова: Ginkgo biloba, древнее растение, ботаническое описание, экологическая значимость, медицина, фармацевтика, распространение.

### **Kirish**

Ginkgo biloba – dunyodagi eng qadimgi o‘simliklardan biri bo‘lib, u 270 million yildan ortiq vaqt mobaynida mavjud. Ushbu o‘simlik noyob biologik va ekologik xususiyatlarga ega bo‘lib, nafaqat fan olimlari, balki tibbiyot va ekologiya sohasi mutaxassislarini ham qiziqtiradi. Ushbu maqolada Ginkgo biloba L. o‘simligining botanik tavsifi, uning ekotizimdagi o‘rni, tarqalishi va insoniyat uchun ahamiyati tahlil qilinadi.

Ginkgo biloba L. o‘simligining botanik tavsifi Ginkgo biloba L. – Ginkgoaceae oilasiga mansub yagona tirik qolgan vakil hisoblanadi. U kuchli daraxt bo‘lib, 30–40 metr balandlikka yetishi mumkin. Barglari yelpig‘ichsimon, ikki bo‘lakli bo‘lib, kuz faslida sariq rangga kiradi. Daraxt ikki uyli (o‘zaro alohida erkak va urg‘ochi daraxtlarga ega) bo‘lib, changlanishi shamol yordamida sodir bo‘ladi. Mevasi yong‘oqsimon tuzilishga ega bo‘lib, tarkibida efir moylari mavjud.

Ginkgo biloba L. paleobotanika nuqtayi nazaridan juda qadimiy turlardan biri bo‘lib, u asosan mezozoy erasi davrida keng tarqalgan. Bu o‘simlikning rivojlanishi davomida ko‘plab biologik moslashuv jarayonlari sodir bo‘lgan.

Ginkgo barglarining maxsus shakli va tuzilishi unga ekstremal iqlim sharoitlariga chidamli bo‘lish imkonini beradi.

Ginkgo biloba L. o‘simligining o‘simliklar qoplamidagi o‘rni Ginkgo biloba tabiiy holda Xitoyning ayrim mintaqalarida uchraydi. U odatda nam iqlimli hududlarda yaxshi o‘sadi va tuproq unumdorligini oshiruvchi xususiyatga ega. Ekologik ahamiyati jihatidan bu daraxt shahar sharoitlariga juda chidamli bo‘lib, havo ifloslanishiga bardosh bera oladi. U ko‘p hollarda bog‘-parklar, xiyobonlar va shahar landshaftlarida bezak daraxti sifatida ishlatiladi.

Shuningdek, Ginkgo biloba tabiiy regeneratsiya qobiliyatiga ega bo‘lib, ayrim biologik mutaxassislar uni ekologik muhitni barqarorlashtirishda muhim vosita sifatida ko‘radi. Bu daraxt tuproq eroziyasini kamaytirishda ham katta rol o‘ynaydi.

Ginkgo biloba L. o‘simligining tarqalishi Dastlab Ginkgo biloba Yer yuzida juda keng tarqalgan bo‘lgan. Biroq muzlik davridan keyin uning tabiiy areali keskin kamayib, hozirda Xitoyning ayrim tog‘li hududlarida yovvoyi holda uchraydi. Bugungi kunda bu o‘simlik Yaponiya, Koreya, AQSh va Yevropaning ko‘plab mamlakatlarida madaniy ravishda ekiladi va ko‘paytiriladi. Ayniqsa, Xitoy va Yaponiyada Ginkgo biloba muqaddas daraxt sifatida qadrlanadi.

Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Ginkgo biloba harorat o'zgarishlariga moslashish qobiliyatiga ega. Uning butun dunyo bo'ylab keng tarqalishiga asosiy sabab, uning yuqori biologik chidamliligi va insonlar tomonidan faol ekilishi bilan bog'liq.

Ginkgo biloba L. o'simligining ahamiyati

Tibbiyotdagi ahamiyati Ginkgo biloba barglari va urug'lari tibbiyotda keng qo'llaniladi. Uning ekstrakti asosan qon aylanishini yaxshilash, miya faoliyatini rag'batlantirish va xotirani mustahkamlash uchun ishlatiladi. Shuningdek, antioksidant xususiyatlarga ega bo'lib, organizmdagi erkin radikallar ta'sirini kamaytiradi. Shuning uchun ham Parkinson va Alzheimer kabi kasalliklarning oldini olishda foydalaniladi. Shuningdek, Ginkgo biloba ekstrakti keksayish jarayonlarini sekinlashtirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu o'simlik yurak qon-tomir kasalliklarini kamaytirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ekologik va bezak ahamiyati Ginkgo biloba shahar muhitida havoni tozalashga yordam beradi. U sanoat va avtomobil transportidan chiqadigan gazlarga chidamli bo'lib, ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, kuz faslida barglarining yorqin sarg'ish tusga kirishi sababli bog'-park va xiyobonlarni yanada jozibali qiladi.

Qishloq xo'jaligidagi ahamiyati Ginkgo biloba urug'lari Osiyo oshxonasida foydalaniladi. Ayniqsa, Xitoy va Yaponiyada uning yong'oqsimon mevasi delikates hisoblanib, turli taomlarga qo'shiladi. Shuningdek, yog'ochi mustahkam bo'lib, mebel va bezak buyumlari ishlab chiqarishda ishlatiladi. Qishloq xo'jaligidagi ahamiyati Ginkgo biloba urug'lari Osiyo oshxonasida foydalaniladi. Ayniqsa, Xitoy va Yaponiyada uning yong'oqsimon mevasi delikates hisoblanib, turli taomlarga qo'shiladi. Shuningdek, yog'ochi mustahkam bo'lib, mebel va bezak buyumlari ishlab chiqarishda ishlatiladi. Bundan tashqari, Ginkgo biloba farmatsevtika sanoatida ham foydalaniladi. Uning tarkibidagi biokimyoviy moddalar turli xil dori vositalari tarkibiga kiritilgan bo'lib, nevrologik kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.

### **Xulosa**

Ginkgo biloba L. – noyob biologik va ekologik xususiyatlarga ega qadimiy daraxt hisoblanadi. Uning o'simlik dunyosidagi o'rni, tarqalishi va insoniyat uchun foydali jihatlari ko'plab ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Bugungi kunda ushbu o'simlik nafaqat tibbiyot va ekologiya sohalarida, balki qishloq xo'jaligi va bezakbop landshaft dizaynida ham keng qo'llaniladi. Uni muhofaza qilish va ko'paytirish kelajak avlodlar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek,

Ginkgo biloba global ekologik muammolarni hal etishda muhim vositalardan biri bo‘lishi mumkin.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Mustafoyev.S.M. "Botanika" O‘zbekiston Toshkent-2002. 472 bet
2. O‘.Pratov.,Q.Jumaev. Yuksak o‘simliklar sistematikasi. Toshkent, "O‘AJBNT", 2003, 146 bet.

**O‘zbekiston tog‘larida tarqalgan Juniperus L. turkumi botanik tavsifi,  
vakillari va ahamiyati**

**Andijon Davlat Pedagogika Insituti  
Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti  
Biologiya yo‘nalishi 103-guruh talabasi  
Ummataliyeva Farangizxon**

**Abstract:** This thesis studies the description and significance of juniper species found in the mountains of Uzbekistan. The research analyzes their ecological role and economic benefits. Juniper plays a crucial role in preserving the ecosystem.

**Аннотация:** В данной тезисе изучается описание и значение видов можжевельника, распространенных в горах Узбекистана. В исследовании анализируется их экологическая роль и хозяйственная ценность. Можжевельник играет важную роль в сохранении экосистемы.

**Keywords:** Juniperus, juniper species, ecological importance, juniper forests, conservation

**Ключевые слова:** Juniperus, виды можжевельника, экологическая значимость, можжевельниковые леса, охрана.

**Kirish.** O‘zbekistonning tog‘li hududlari o‘ziga xos flora va fauna boyligi bilan ajralib turadi. Bu hududlarda ko‘plab o‘simlik turlari uchraydi, ulardan biri – ignabargli doim yashil daraxt va butalar turkumiga mansub archa (Juniperus) hisoblanadi. Archa O‘rta Osiyo ekotizimida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tuproq eroziyasining oldini olish, havoni tozalash, hamda o‘ziga xos landshaft hosil qilish kabi ekologik funksiyalarni bajaradi. Archa (Juniperus) — sarvdoshlar (Cupressaceae) oilasiga mansub doim yashil daraxt va butalar turkumi bo‘lib, dunyo bo‘ylab 70 ga yaqin turi mavjud. Ular bir jinsli, bir yoki ikki uyli, shamol yordamida changlanuvchi ignabargli o‘simliklardir. Erkak qubbalari sarg‘ish rangda bo‘lib, 3–6 ta changdonli qipiqsimon changchilardan tashkil topgan. Urg‘ochi qubbalari yashil rangda, qarama-qarshi yoki oldinmakeyin joylashgan urug‘chibarg va urug‘kurtaklardan iborat. Qubbalari yumaloq shaklda (diametri 5–20 mm) bo‘lib, ichida 1–10 dona urug‘ mavjud. Archa mart-may oylarida gullaydi, mevasi qo‘ng‘ir rangda bo‘lib, ikkinchi yili (sentabr-noyabrda) pishib, qish yoki bahorda to‘kiladi. O‘zbekiston tog‘larida quyidagi archa turlari keng tarqalgan: Juniperus semiglobosa (sovur archa) Juniperus turkestanica (o‘rik archa) Juniperus sabina (qora archa) Juniperus seravschanica (Zarafshon archasi) Bu turlar maxsus archazorlarni tashkil etib, O‘rta Osiyo, xususan O‘zbekiston tog‘larida keng tarqalgan. Archaning

xo'jalikdagi ahamiyati katta: Yog'ochi: me'morchilikda, o'ymakorlikda va qalam yasashda ishlatiladi. Xushmanzara o'simlik: ba'zi turlari dekorativ maqsadlarda foydalaniladi. Qubbalaridan olinadigan moddalar: turli moddalar (efir moyi, qatron, qand, mum va organik kislotalar) olinadi.

Tibbiyotda qo'llanilishi: qubbasining damlamasi siydik haydovchi, balg'am ko'chiruvchi va ovqat hazm qilishni yaxshilovchi dori sifatida ishlatiladi. O'rta Osiyodagi turlaridan olinadigan efir moyining sedrol fraksiyasi esa jarohatni, suyakning teshilib oqishini davolashda qo'llaniladi. Archa daraxtlari tuproqni mustahkamlash, eroziyani oldini olish va ekologik muvozanatni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Archaning ekologik ahamiyati: Archa turlari nafaqat estetik va xo'jalik jihatdan, balki ekologik muvozanatni saqlashda ham katta ahamiyatga ega: Tuproq eroziyasining oldini oladi – archa ildizlari tuproqni mustahkamlab, uning yuvilib ketishini kamaytiradi. Havoni tozalaydi – archa efir moylari havodagi zararli moddalarni yutib, kislorod ishlab chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Biotsenozni qo'llabquvvatlaydi – ko'plab hayvonlar va hasharotlar uchun yashash muhitini yaratadi. Iqlimga ta'siri – namlikni saqlash, shamollar ta'sirini kamaytirish va haroratni barqarorlashtirishda yordam beradi. Shuningdek, ular ko'plab hayvonlar uchun boshpana va oziq manbai hisoblanadi.

**Xulosa:** O'zbekiston tog'larida tarqalgan Juniperus turkumiga mansub archa turlari ekologik va xo'jalik ahamiyati jihatidan muhim o'simliklar hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, archa turlari o'zining biologik xususiyatlari bilan tog' ekotizimida muhim rol o'ynaydi. Ular tuproq eroziyasining oldini olish, havoni tozalash, mikroiklimni barqarorlashtirish hamda ko'plab hayvonlar uchun boshpana va oziq manbai bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda keng tarqalgan Juniperus semiglobosa, Juniperus turkestanica, Juniperus sabina va Juniperus seravschanica kabi turlar tabiat muhofazasi uchun katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, archaning yog'ochi, efir moylari va boshqa biologik faol moddalaridan farmatsevtika, parfyumeriya va qurilish sohalarida foydalaniladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Razakova G.H., Tojiboyev M.U. "O'zbekiston tog'larida tarqalgan Juniperus L. turkumi botanik tavsifi, vakillari va ahamiyati". Universal xalqaro ilmiy jurnal, Jild 1, №9 (2024), 33- 36.
2. "Archa (Juniperus turkestanica) ning O'zbekiston tog'larida tarqalishi va ekologik ahamiyati". INASHR, 2023.
3. "O'zbekiston florasini Hisobot 2024". O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika instituti, 2024.
4. "Manzarali o'simliklar" o'quv qo'llanmasi. Namangan Davlat Universiteti, 2025.

## GINKGO BILOBA: BOTANIK TAVSIFI, TARQALISHI VA AHAMIYATI

**Andijon Davlat Pedagogika Insituti**  
**Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti**  
**Biologiya yoʻnalishi 103-guruh talabasi**  
**Bahtiyorva Marjona**

### **Annotatsiya**

Ginkgo biloba — qadimiy va noyob daraxt turi boʻlib, Ginkgoaceae oilasining yagona vakili hisoblanadi. U 20–35 metr balandlikka yetadi, barglari yelpigʻichsimon va kuzda sariq tusga kiradi. Asosan Xitoyda tabiiy holda uchraydi, biroq Yaponiya, Koreya, AQSh va Yevropada ham keng tarqalgan. Uning dorivor ahamiyati katta boʻlib, xotirani yaxshilash, qon aylanishini qoʻllab-quvvatlash va yurak-qon tomir tizimi uchun foydalidir. Ekologik jihatdan havoni tozalash, shovqinni kamaytirish va shahar muhitiga moslashish xususiyatiga ega. Shuningdek, dekorativ oʻsimlik sifatida xiyobon va bogʻlarda oʻstiriladi hamda uning urugʻlari Osiyo oshxonasida isteʼmol qilinadi.

### **Annotation**

Ginkgo biloba is an ancient and unique tree, the only surviving representative of the Ginkgoaceae family. It grows up to 20–35 meters tall and has fan-shaped leaves that turn yellow in autumn. Naturally found in China, it is also widely cultivated in Japan, Korea, the USA, and Europe. It has significant medicinal properties, improving memory, supporting blood circulation, and benefiting cardiovascular health. Ecologically, it helps purify the air, reduce noise pollution, and adapt well to urban environments. Additionally, it is used as an ornamental tree in parks and gardens, and its seeds are consumed in Asian cuisine.

### **Аннотация**

Ginkgo biloba — древнее и уникальное дерево, единственный представитель семейства Ginkgoaceae. Оно достигает высоты 20–35 метров, имеет веерообразные листья, которые осенью приобретают жёлтый оттенок. В природе встречается в Китае, но также широко распространено в Японии, Корее, США и Европе. Обладает ценными лечебными свойствами: улучшает память, поддерживает кровообращение и способствует здоровью сердечно-сосудистой системы. Экологически полезно, так как очищает воздух, снижает

уровень шума и хорошо адаптируется к городским условиям. Кроме того, используется в декоративных целях в парках и садах, а его семена употребляются в азиатской кухне.

**Kalit soʻzlar:** Ginkgo biloba, qadimiy daraxt, Ginkgoaceae, dorivor xususiyatlar, хотира, qon aylanishi, yurak-qon tomir tizimi, ekologiya, havo tozalash, dekorativ oʻsimlik, Osiyo oshxonasi, ilmiy tadqiqotlar.

**Keywords:** Ginkgo biloba, ancient tree, Ginkgoaceae, medicinal properties, memory, blood circulation, cardiovascular system, ecology, air purification, ornamental plant, seeds, Asian cuisine, scientific research.

**Ключевые слова:** Ginkgo biloba, древнее дерево, Ginkgoaceae, лечебные свойства, память, кровообращение, сердечно-сосудистая система, экология, воздух, декоративное растение, семена, азиатская кухня, научные исследования

### **Kirish**

Ginkgo biloba — qadimiy daraxt turlaridan biri boʻlib, hozirgi kunda yagona vakili saqlanib qolgan Ginkgoaceae oilasiga mansub. U biologik xilma-xillik, dorivor ahamiyati va genetik qadimiyligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada Ginkgo biloba oʻsimligining botanik tavsifi, tarqalishi va inson hayotidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Botanik tavsifi. Ginkgo biloba — barg toʻkuvchi, ikki uyli daraxt boʻlib, oʻrtacha 20–35 metr balandlikda oʻsadi, baʼzan 50 metrgacha yetishi mumkin. Uning tanasi toʻgʻri, qobigʻi qalin va yoriqli boʻladi. Yosh daraxtlarning shoxlari tor va tik, kattalarining esa keng tarvaqaylagan boʻladi. Barglari yelpigʻichsimon boʻlib, ikkiga ajralgan plastinkaga ega. Barglarning uzunligi 5–10 sm atrofida, yashil rangda boʻlib, kuzda sariq tusga kiradi. Ginkgo daraxtlari ikki uyli boʻlganligi sababli, urgʻochi daraxtlar mevaga ega boʻlib, erkak daraxtlar changchi hosil qiladi. Mevalari sargʻish-toʻq sariq tusda boʻlib, yongʻoqqa oʻxshash qattiq qobiq bilan qoplangan. Daraxt urugʻ orqali koʻpayadi. Changlanish jarayoni shamol yordamida amalga oshadi. Ginkgo oʻsimligi juda sekin oʻsuvchi turlar qatoriga kiradi va 1000 yilgacha yashashi mumkin.

Tarqalishi Ginkgo biloba tabiiy holda asosan Xitoyning togʻli hududlarida uchraydi. Uni koʻplab davlatlarda dekorativ yoki dorivor oʻsimlik sifatida ekishadi. Ayniqsa, Yaponiya, Koreya, AQSh va Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan. Xitoyda qadimdan maʼbad va ibodatxonalar atrofida oʻstirilgan. Tabiiy yashash joyi

asosan nam, unumdor tuproqlar bo‘lib, iqlim sharoitiga moslashuvchan daraxt hisoblanadi. U changlanishga chidamli bo‘lib, shahar sharoitida ham yaxshi o‘sadi.

Ahamiyati. Ginkgo biloba qadimdan xalq tabobatida qo‘llanilgan. Uning barglari flavonoidlar, terpenoidlar va antioksidantlarga boy bo‘lib, qon aylanishini yaxshilash, xotirani kuchaytirish va Altsgeymer kasalligini oldini olishda samarali vosita hisoblanadi. Shuningdek, yurak-qon tomir kasalliklarida ham foydalidir.

Ekologik ahamiyati. Ginkgo biloba shahar ekologiyasi uchun muhim o‘simliklardan biri hisoblanadi. U havoni ifloslantiruvchi gazlarni yutish, shovqinni kamaytirish va tuproq eroziyasini oldini olish xususiyatiga ega.

Dekorativ ahamiyati. Uning g‘o‘zal ko‘rinishi tufayli bog‘ va xiyobonlarga ekiladi. Kuzda barglari sariq tusga kirib, atrof-muhitga estetik joziba bag‘ishlaydi.

Oziq-ovqat sanoati. Ginkgo urug‘lari Osiyo oshxonasida ishlatiladi. Xitoy va Yaponiyada bu yong‘oqlar sho‘rvalar va boshqa taomlar tarkibiga qo‘shiladi.

Xulosa: Ginkgo biloba o‘zining noyob botanik xususiyatlari, keng tarqalgan hududi va inson salomatligi uchun foydali xususiyatlari bilan ajralib turadi. Uning ekologik barqarorlikni saqlash, dorivor xususiyatlari va bezak sifatidagi ahamiyati uni qimmatli o‘simliklardan biriga aylantirgan. Bugungi kunda Ginkgo bilobani o‘rganish va undan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy izlanishlar davom etmoqda.

#### **Foydalangan adabiyotlari:**

1. Singh, R. et al. (2008). "Ginkgo biloba: A living fossil with therapeutic properties." *Journal of Ethnopharmacology*.
2. Mahadevan, S., & Park, Y. (2008). "Multifaceted therapeutic benefits of Ginkgo biloba L.: Chemistry, efficacy, and safety." *Journal of Food Science*.
3. Van Beek, T. A. (2005). *Ginkgo biloba*. CRC Press.
4. World Health Organization (WHO) Monographs on Selected Medicinal Plants.

**O'zbekiston tog'larida tarqalgan Juniperus L. Turkumi botanic tavsifi,  
vakillari va ahamiyati.**

**Djumaboyeva Muhabbatxon**

Andijon davlat pedagogika instituti Tabiiy va aniq fanlar Fakulteti  
Biologiya yo'nalishi 103-gurux talabasi.

Ilmiy rahbar: **Tojiboyev Murodali**

**Abstract:** The article is devoted to the botanical description of plants of the *Juniperus L.* genus, distributed in the mountains of Uzbekistan, their representatives and ecological significance. The *Juniperus* genus is one of the oldest and ecologically important groups of plants. These plants are mainly found in mountainous and foothill areas and are highly resistant, exhibiting drought and frost resistance. The article analyzes in detail the characteristics of plants belonging to the *Juniperus* genus, the biotopes in which they grow, and their ecological role. *Juniperus* representatives distributed in the Tien Shan, Fergana and Zarafshan mountains of Uzbekistan, especially such species as *Juniperus communis* and *Juniperus turkestanica*, are discussed. The article also considers the use of *Juniperus* plants in folk medicine and the construction industry, their economic and ecological significance, as well as their role in preserving the nature of Uzbekistan. The article emphasizes the need to increase the importance of *Juniperus* plants in ensuring ecological stability and managing natural resources.

**Keywords:** juniper, dome, apricot juniper, black juniper, Zarafshan juniper.

**Аннотация:** Статья посвящена ботаническому описанию растений *Juniperus L.*, распространенных в горах Узбекистана, их представителей и экологическому значению. Род *Juniperus* — одна из древнейших и экологически важных групп растений. Эти растения в основном встречаются в горных и предгорных регионах, обладают высокой выносливостью и устойчивостью к засухе и холоду. В статье подробно анализируются характеристики растений рода *Juniperus*, места их обитания и экологическая роль. Представители *Juniperus*, особенно *Juniperus communis* и *Juniperus turkestanica*, встречаются в Тянь-Шане, Фергане и Зарафшанских горах Узбекистана. Также в статье рассматривается использование растений можжевельника в народной медицине и строительной отрасли, их экономическое и экологическое значение, а также роль в сохранении природы Узбекистана. В статье подчеркивается необходимость повышения значения

растений можжевельника в обеспечении экологической стабильности и рациональном использовании природных ресурсов.

**Ключевые слова:** можжевельник, купольный, можжевельник абрикосовый, можжевельник черный, можжевельник Зарафшанский.

Archa (Juniperaceae)-Sarvdoshlar oilasiga mansub doim yashil daraxt va butalar turkumi 70 ga yaqin turi bor. Archa bir jinsli yoki ikki jinsli shamol yordamida changlanuvchi o'simlik. Archaning erkak qubbasi sarg'ish, 3-6 changdonli qipiqsimon changchilardan iborat. Urg'ochi qubbalari yashil bo'lib qarama-qarshi yoki oldinma keyin o'rnashgan urug'chi barg va urug'kurtakdan iborat. Qubbalari yumaloq diametri 5-20 mm bo'lib, ichida 1-10 dona urug' bor. Archa mart-may oylarida gullaydi. Archaning ko'pchiligi o'rta mintaqalarda o'sadi. Archaning ba'zi turlari tropik hududlardagi tog'larda uchraydi. Masalan Sarv archa, O'rik archa, Zarafshon archasi, Qora archa kabilar O'rta Osiyoda xususan O'zbekiston tog'larida tarqalgan va ular maxsus archa zonalarini tashkil qiladi. Archa Shimoliy yarimsharlarda ham bo'lib katta-katta o'rmonlar hosil qiladi. Archa juda ham foydali, dorivor, xushmanzara o'simlik hisoblanadi. Archa asab sistemasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun archa yog'ochlaridan tayyorlangan yostiqlar ham mavjud. Ular asabni tinchlantirish bilan nerv sistemasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Undan chiqadigan hid bakteriyalarni yo'qotadi. Shamollash, uyqusizlik va bo'g'im kasalliklarida archa yostiqlaridan foydalaniladi. Qadimda va hozirda ham ba'zi joylarda chaqaloqlarning qovuzloqlarini tozalashda archaning quritilgan barglaridan foydalaniladi. Archa revatizm kasalligiga ham davo bo'ladi. Revmatizm kasalligini streptakkok bakteriyasi keltirib chiqaradi. Xalq meditsinasida archaning g'udda mevasidan tayyorlangan qaynatma milk va og'iz bo'shlig'i kasalliklarida og'iz chayish uchun ishlatiladi. Archa o'simliklari turli muhitlarda o'sa oladi. Bundan tashqari archalarni toshloq tuproqli, quruq joylarda topish mumkin. Bu o'simliklarni yaylov hayvonlari va qishloq aholisi turli maqsadlarda keng foydalanadi. Barglari va yog'ochining muhim xususiyatlari tufayli, qishloq aholisi ushbu daraxtlarni kesib ulardan foydalanadi. G'arbiy hududlarda archa o'simliklarining o'ziga xos turlari keng va ochiq o'rmonlarda uchraydi. Yong'inlarning kamayishi va chorva mollarining yo'qligi tufayli g'arbiy archalar ko'payib, ularni kesish ko'paygan. Bu esa atrof-muhitda o'zgarishlarga olib keladi; masalan, avval atrof-muhit va qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan hayvonlar yashaydigan ekotizmlar buziladi. Archalar populyatsiyasi ortgani sari, tog'larda yog'och turlarining kamayishi kuzatilmoqda. Daraxtlar orasidagi

raqobatning kuchayishi, meva mahsulotlari hajmining kamayishiga olib kelmoqda.

Archalar park va bog'lar uchun manzarali o'simlik sifatida keng tarqalgan eng mashhur ignabargli daraxtlardan biridir. Ular turli rang va o'lchamlarda ko'p yillar davomida ko'paytirilgan bo'lib, turli shakllarni yaratish imkonini beradi. Shu jumladan, mitti miniatyura navlari ham mavjud bo'lib, ular dekorativ ko'rinishi bilan bog'larga o'zgacha go'zallik bag'ishlaydi. Yog'och qatronli, qizg'ish, juda qattiq va chirishga yaxshi qarshilik ko'rsatadi, kuyganda yoqimli hidga ega. Yog'ochlik, duradgorlik va hunarmandchilik uchun ishlatiladi. Ba'zan ular qurilish materiali va yoqilg'i sifatida ishlatilgan, ammo archa o'rmonlaridagi yog'och zaxiralari juda kam va bundan tashqari, archa tog'li o'rmonlarda suvni saqlashda katta ahamiyatga ega. Baland archa zang qo'ziqorinining (*Gymnosporangium sabinae*) asosiy mezbonlaridan biridir, Zamburug'lar archa po'stlog'i va yog'ochida tarqalib, hujayralar o'sishining kuchayishiga olib keladi, buning natijasida zararlangan hududdagi novdalar qalinlashadi. Shuningdek, archaning mustahkam yog'ochi qurilish va hunarmandchilikda, bezak sifatida esa bog' va xiyobonlarni ko'kalamzorlashtirishda keng qo'llaniladi. Uning xushbo'y hidi havoni tozalash xususiyatiga ega bo'lib, insonlarga ruhan xotirjamlik bag'ishlaydi.

Bularning barchasi archaning nafaqat o'simlik sifatida, balki inson hayotida ajralmas qimmatga ega tabiiy boylik ekanini ko'rsatadi. Uni asrash va ko'paytirish kelajak avlodlar uchun ham muhim vazifalardan biridir.

**OUTLINE  
VOLUME-02, ISSUE-03**

1.	<b>MINNATDORCHILIK NUTQIY AKTLARIDA LOKUTSIYA VA ILLOKUTIV MAQSADNING IFODALANISHI</b> <i>Mirjalol Olimovich Ziyayev</i>	5-12
2.	<b>Xorazm viloyati sharoitida Yasmiqning “Sarbon” va “Darmon” navlarini yetishtirish agrotexnologiyasi</b> <i>N.U.Zaribova O.Sh.Atajonova</i>	13-15
3.	<b>Badiiy adabiyotda bolalarga xos ifodalarning pragmatik xususiyatlari ilmiy-pedagogik muammo sifatida.</b> <i>Sharifov Jaxongir Galiyevich</i>	16-22
4.	<b>Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy talabalarni o'qitishning me'yoriy-xuquqiy asoslari</b> <i>Matchanova Nargiza To'liqinova</i>	23-30
5.	<b>Xorazm viloyati sharoitida Yovvoyi nok (Pyrus) asosida nok ko'chatlarini ko'paytirish usullari</b> <i>K.R.Yo'ldashev O.Sh.Raximberdiyev</i>	31-35
6.	<b>Irsiy kasalliklar va gen kasalliklarini o'rganish va zamonaviy tibbiyot yordamida oldini olish</b> <i>Sattarova Gulnoza Salim qizi</i>	36-41
7.	<b>IMPROVING THE QUALITY OF LIFE OF THE POPULATION THROUGH THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP</b> <i>Khushvakov Anvar Bokievich</i>	42-48
8.	<b>THE COMMUNICATIVE METHOD IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING</b> <i>Zokirjonova Maftuna Zokirjon kizi</i>	49-53
9.	<b>THE COMMUNICATIVE METHOD IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING</b> <i>Zokirjonova Maftuna Zokirjon kizi</i>	54-58
10.	<b>THE ROLE OF THE VEHICLE DRIVER TRAINING SYSTEM IN ENSURING TRAFFIC SAFETY</b> <i>Kalauov Saydulla Aymakhanovich Shukurov Nuritdin Rakhimovich</i>	59-63
11.	<b>MAHMUDHOJA BEHBUDI: TÜRKISTAN'IN AYDINLIK YOLU</b> <i>Ermatova Zulfiya Abdug'aniyevna,</i>	64-68

12.	Qadimiy yumshoq bug‘doy navlarining don sifat ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlili (Xorazm viloyati sharoitida) Z.B. Alloberganova Z.B. Isayeva V.B.Nurullayeva	69-72
13.	Мақтабгача та’лим yoshidagi bolalarda kognitiv faoliyatni rivojlantirish orqali chet tili o‘rgatishning zamonaviy metodlari Matkarimova Farog‘at Rustam qizi Matkarimova Ozoda Rustamovna	73-79
14.	ВЛИЯНИЕ ОНМК НА ЛЕТАЛЬНОСТЬ У ПАЦИЕНТОВ ПОСЛЕ АОРТОКОРОНАРНОГО ШУНТИРОВАНИЯ С.Н. Гуломитдинов, М.М. Бахадирханов	80-85
15.	ARTISTS BELONGING TO THE KHIVA KHANATE Alimov Ahmadjon Otabek o'g'li	86-88
16.	GENDERDI ANLATIWSHI BIRLIKLER (inglis hám qaraqalpaq tilleri misalinda) Nazarova Mukaddas Yuldashbayevna	89-95
17.	АВТОМАКТАБ ЎҚИТУВЧИ ВА ҲАЙДОВЧИ-ЙЎРИҚЧИЛАРНИ ЎҚИТИШДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН ИННОВАЦИОН МЕТОДЛАР. Иброҳимов Иброҳим Баходирович	96-104
18.	The Importance of Phraseologisms in Our Daily Life Jumatova Buvijon	105-109
19.	Suv tejamkor texnologiyalar asosida sholi etishtirishning afzalliklari (Xorazm viloyati sharoitida) Amanboyeva Gulzoda Maxmudjon qizi	110-112
20.	ACTIVATION OF BENTONITE: METHODS, MECHANISMS AND INDUSTRIAL SIGNIFICANCE Qobilov Shokir Jo`raqulovich	113-115
21.	XAMMURAPI QONUNLARIDA JAZOLASH TARTIBI Baxramova Mohinur Baxram Qizi	116-119
22.	THE COVERAGE OF PSYCHOLOGICAL CULTURE ISSUES IN THE RESEARCH OF OUR COUNTRY’S SCIENTISTS Botirova Yorqinoy Dilshod qizi	120-124

23.	<b>SHAXSIY MOLIYAVIY HISOBNI BOSHQARISHNI AVTOMATLASHTIRISH</b> <b>Abdusalomov Diyorbek Shavkatovich</b> <b>Maxkamova Dilbar Abilkasim qizi</b>	125-131
24.	<b>CHANGING ATTITUDES TOWARDS LABOR IN A MARKET ECONOMY</b> <b>Anvarova Lobarxon Sherzod qizi</b> <b>Doniyorova Iroda Bahodirovna</b>	132-136
25.	<b>THE ROLE OF ARTISTIC AND AESTHETIC EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN IN MODERN CONDITIONS</b> <b>Bekmanova Jamilya Abdullaevna,</b>	137-139
26.	<b>ZULFIYA IJODIDA ASSOTSIATIV BIRLIKLARNING O‘RNI</b> <b>Xaytboyeva Muxlisa Muxtor qizi,</b>	140-143
27.	<b>KUNGABOQAR O‘SIMLIGI URUG‘INING UNIB CHIQISHIGA EKOLOGIK OMILLARNING TA‘SIRI</b> <b>I.R.Avazmetova</b> <b>K.X.Raximova</b>	144-146
28.	<b>A COMPARATIVE STUDY OF METAPHORICAL AND FIGURATIVE MEANINGS</b> <b>Begjanova Djamila Arislanbayevna</b>	147-145
29.	<b>РАЗВИТИЕ МЫШЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ МУЛЬТИМОДАЛЬНУЮ ПЕДАГОГИКУ</b> <b>Турсунова Эльмира Улугбековна</b> <b>Рузметова Хилола Абдушариповна</b>	151-153
30.	<b>THE CONCEPT OF TRANSLANGUAGING AND ITS ROLE IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY</b> <b>FAYZULLAYEVA MUKHAYYO</b> <b>RAKHMATILLAEVNA</b>	154-157
31.	<b>ASSESSMENT OF BRONCHIAL WALL THICKNESS IN SECONDARY CHILDHOOD AND ADULTS (12-19 YEARS OLD) COMPARISON WITH THEORETICAL MODELS</b> <b>Jalilova O‘g‘iloy To‘lqin qizi</b>	158-164
32.	<b>Oliy ta‘lim muassasalarining kimyo yo‘nalishi talabalariga raqamli texnologiyalardan foydalanib biologiya o‘qitishning nazariy asoslari</b> <b>Zamonova Manzura Vali qizi</b>	165-170
33.	<b>GINKGO BILOBA O‘SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI, TARQALISHI VA AHAMIYATI</b>	171-174

	<b>O'ktamboyeva Malohat</b>	
<b>34.</b>	<b>Ginkgo biloba L. o'simligining botanic tavsifi, tarqalishi va ahamiyati</b> <b>Botanical description, distribution and significance of Ginkgo biloba L. plant</b> <b>Abdumalikova Habibaxon</b>	<b>175-177</b>
<b>35.</b>	<b>GINKGO BILOBA L. O'SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI, O'SIMLIKLAR QOPLAMIDAGI O'RNI, TARQALISHI VA AHAMIYATI</b> <b>Janibekova Yulduzxon</b>	<b>178-181</b>
<b>36.</b>	<b>O'zbekiston tog'larida tarqalgan Juniperus L. turkumi botanic tavsifi, vakillari va ahamiyati</b> <b>Ummataliyeva Farangizxon</b>	<b>182-183</b>
<b>37.</b>	<b>GINKGO BILOBA: BOTANIK TAVSIFI, TARQALISHI VA AHAMIYATI</b> <b>Bahtiyorva Marjona</b>	<b>184-186</b>
<b>38.</b>	<b>O'zbekiston tog'larida tarqalgan Juniperus L. Turkumi botanic tavsifi, vakillari va ahamiyati.</b> <b>Djumaboyeva Muhabbatxon</b>	<b>187-189</b>
<b>39.</b>	<b>MUNDARIJA</b>	<b>190-193</b>